

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG

HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA

Dastur va uslubiy qo‘llanma

Toshkent – 2020

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodini oliy ta‘lim muassasalarida o‘rganish uchun ishlab chiqildi. Unda shoir she‘riy merosining barcha jihatlari qamrab olingan.

Shoir ijodida olg‘a surilgan g‘oyalarni o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazish maqsadida ijodkor hayoti va ijodiga murojaat qilingan, har bir mavzu oxirida shoir ijodidan namunalar keltirilgan bo‘lib, ularni tanlashda talabalarning bilim darajasi va layoqati hisobga olingan.

Ushbu dastur va uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodini o‘rgatish yuzasidan mashg‘ulotlar olib boruvchi oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Gulnoza Jo‘rayeva,
filologiya fanlari nonzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Ulug‘bek Hamdam,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Marg‘uba Abdullayeva,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Aleksandr Faynberg hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kusning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi, siyosiy-ijtimoiy faoliyati, tarjimonlik mahorati, madaniyat sohasida amalga oshirgan ishlari yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Aleksandr Faynberg hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, o‘zbek ijodkorlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birgina Aleksandr Faynberg faoliyati misolida ochib berish, Faynbergning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- O‘zbek adabiy jarayonlarida Aleksandr Faynberg tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;
- Aleksandr Faynberg hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish;
- Aleksandr Faynbergning ijodiy, tarjimonlik, adabiy-ilmiy ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish;
- bugungi istiqlolning kurtagi dastlab Aleksandr Faynberg kabi buyuk ajdodlarimiz ko‘ksida nish urib yetilganligiga e’tiborni qaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Aleksandr Faynberg faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;
- Aleksandr Faynberg hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan Jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarning ma’navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Aleksandr Faynbergning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Chig‘ir” asari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi yuzasidn ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;
- Aleksandr Faynbergning tarjimonlik faoliyati, jumladan, ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy mavzudagi asarlari bilan tanishish, ularda aks ettirilgan g‘oyalarni talqin qila olishlari;
- Aleksandr Faynbergning adib sifatidagi qiyofasini ochib beruvchi “Chig‘ir” asari, tarjima asarlarini o‘rganish;
- Aleksandr Faynbergning o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimalarining ahamiyatini o‘rganish.

V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “Jahon adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Tarjimashunoslik” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat
MA'RUZALAR				8
1	Kirish. Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi	Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Faynberg ijodini o'rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Faynberg dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar izohlanadi.	Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	2
2	Aleksandr Faynbergning ijodida Vatan timsoli	Aleksandr Faynbergning she'rlarida Vatan timsoli tahlil qilinadi. She'rlarining mazmun-mohiyati, uning ijodidagi asosiy yo'nalishlar tushuntiriladi.	O'zbek adabiyotida Faynberg amalga oshirgan ishlarni, "Chig'ir" asarining ahamiyatini, tarjima asarlarini mohiyatini anglab yetadilar.	2
3	Tarjimon saboqlari. Rustam Musurmon: Yonib turar derazam har tun	Faynberg asarlarini Rustam Musurmon tomonidan tarjima qilingani, shoirning Navoiy ijodidan qilgan tarjimalari tahlil qilinadi.	Aleksandr Faynberg ijodi to'laligicha Istiqlol ruhi, maqsadlari bilan yo'g'rilganligi, millat manfaati uchun xizmat qilganligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Faynbergning "Chig'ir" asaridagi o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalarni tushunib yetadilar.	2
4	Shoir shaxsiyatia nazar: Aleksandr Faynberg: "Yozayotganing bu sening	Milliy mustaqillikka erishish uchun Faynberg ijodining yanada keng ko'lamda o'rganilishi va yurtimizda jahon	Aleksandr Faynberg ijodiga o'zgacha nigoh bilan qarash va adabiyotshunoslar tomonidan e'tirof etilishi va kun nuqtayi nazaridan baholash ko'nikmasiga ega bo'ladilar	2

	baxting”	shoir yozuvchilariga hurmat va e’tiborning ortganligini ko‘rishimiz mumkin.		
SUHBAT-MULOQOTLAR				4
1	Aleksandr Faynberg – O‘zbekiston kuychisi	Aleksandr Faynberg O‘zbekistonni ona Vatanim deya jondan ortiq sevadi. Ona deya ardoqlagan Vatanga mehr-u muhabbat, shukronalik tuyg‘ularini izhor etishdan tolmaydi. She’rlari, nasriy asarlarida O‘zbekistonning jannatmonand manzaralarini, xalqimizning milliy urf-odatlarini, yuksak madaniyati va ma’naviyatini tasvirladi. Tasvirlaganda ham samimiy, yurakni jiz etkazadigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodalanadi va faoliyati tahlil qilinadi.	Prezidentimiz tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan Adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning ulug‘ namoyandalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham o‘rnatildi. Shoir o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan, o‘zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste’dod sohiblaridan biri edi. U ibratli ijodiy faoliyati uchun davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “O‘zbekiston xalq shoiri” faxriy unvoni bilan mukofotlangan. Faynbergning xizmatlari to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.	2
2	Tarjima va irod: tutashgan va ayro yo‘llar	U o‘n beshta she’riy kitob muallifi hisoblanadi. U Alisher Navoiyning dostonlarini va she’rlarini, shuningdek, boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlarining she’rlarini rus tiliga	Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Faynberg hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san’at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor	2

		<p>tarjima qilgan. Uning she'rlari "Смена", "Юность" ("Yoshlik"), "Новый мир" ("Yangi dunyo"), "Звезда Востока" ("Sharq yulduzi"), "Новая Вольга" ("Yangi to'lqin") jurnallarida va AQSh, Kanada va Isroil kabi xorij mamlakatlarining vaqtlari matbuotlarida chop etilgani to'g'risida ma'lumot beriladi.</p>	<p>bo'ladi. Talabada Faynberg ijodi haqida umumiy ma'lumot paydo bo'ladi.</p>	
MUNOZARALAR				4
1	Faynbergning lirik mahorati	<p>Mashg'ulot avvalida Bir necha yillar mobaynida A. A. Faynberg Toshkentdagi O'zbekiston yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan. Shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi hisoblangan. 2004-yil shoir A.A. Faynberg Rossiya Prezidenti farmoni bilan Pushkin medali bilan taqdirlangan. Ushbu yuqori mukofotga u Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda rus tili va rus madaniyatini saqlab qolishdagi ulkan hissasi uchun</p>	<p>O'zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlangan (2009).</p>	2

		<p>sazovor bo'lgani to'g'risida ma'lumot berib beriladi.</p>		
2	<p>“Aleksandr Faynberg — o‘zbek va rus xalqlari farzandi</p>	<p>Uning qalamiga to‘rtta uzun metrajli badiiy filmlar, jami yettita badiiy film ssenariysi mansub bo‘lib, Faynberg ssenariysi asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Eng ko‘m-ko‘k osmon ostida”, “Tojikfilm” kinostudiyasida esa “Jinoyatchi va oqlovchilar” va boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Uning nasri katta qiziqish uyg‘otadi.</p>	<p>Ajoyib tarjimon Faynberg ruszabon kitobxonga taniqli o‘zbek shoirlarining ko‘plab asarlarini ochib bergan. Moskvada Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchonlarning she‘rlari jamlangan “Oq qushlar galasi” to‘plami nashrdan chiqqan.</p>	2
TAQDIMOT				4
1	<p>Aleksandr Faynberg — mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondasi</p>	<p>Faynberg she‘rlarida uchqunli hajviya mavjud. “Ruboiy tori” dostonida u kulgu orqali o‘zbek choyxonasini o‘zgarmas oshini shunday tasvirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o‘qib bo‘lmaydi. Faynbergning she‘riy ijodida o‘tmish bilan hozirgi</p>	<p>Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o‘zining insoniy mohiyatini to‘la saqlab qolgan, o‘zgaga mehr-shafqat va madad qo‘lini uzatishga tayyor, ayni paytda yer kurrasida sodir bo‘layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi jo‘mard insondir. Faynbergning she‘riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari</p>	2

		<p>kun, G'arb bilan Sharq, milliylik bilan baynalmilallik o'zaro tutashib, o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi.</p>	<p>sintezlashgan. Sharq mumtoz she'riyati an'analari ham uning ijodiy uslubiga begona emasligi haqidagi ma'lumotlar bilan o'z bilimlarini oshirib boradilar.</p>	
2	<p>Xalqlar do'stligi — oliy saodat</p>	<p>Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamli. Uning she'rlarida rang-baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg'ular tiniqligi yarqirab turadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga o'quvchini ham hamroh qiladi. U O'zbekistonda yashadi va ijod qildi. Bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli, bir so'z bilan aytganda, butun borlig'i shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz. Bu shoir satrlarining, asarlarining haroratida bor bo'yi bilan ko'rinadi, bo'ylari nafasimizga uriladi.</p>	<p>Aleksandr Faynberg asarlarining g'oyaviy maqsadi, Faynbergning jahon adabiyoti namunalariga bo'lgan qiziqishi, o'zbek adabiyotidan qilgan tarjimalari saviyasi, uning ahamiyati tushuntiriladi.</p>	2

**VII. “ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA IJODI ”
KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIY TA‘MINOTI**

**“ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA IJODI”
KURSINING SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:					
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti				
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:					
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:			e-mail:		
Dars vaqti va joyi:			Kursning davomiyligi:		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:	30
	Ma’ruza:	8	Seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Jahon adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Tarjimashunoslik” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.				
Fanning mazmuni					
Kursning maqsad va vazifasi:	<p>Fanning asosiy maqsadi - Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Faynberg hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, Faynbergning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – O‘zbek adabiy jarayonlarda Aleksandr Faynberg tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish; – Aleksandr Faynberg hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish; – Aleksandr Faynbergning ijodiy, tarjimonlik, adabiy-ilmiy ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish; – bugungi istiqlolning kurtagi dastlab Aleksandr Faynberg 				

	<p>kabi buyuk ajdodlarimiz ko'ksida nish urib yetilganligiga e'tiborni qaratish;</p> <ul style="list-style-type: none"> – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lida Aleksandr Faynberg faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ'ib etish; – Aleksandr Faynberg hayot yo'li va faoliyati asosi bo'lgan Jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik, erkparvarlik, to'g'riso'zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma'navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish; – Aleksandr Faynbergning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Chig'ir” asari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma'no-mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish. 				
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o'zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Faynbergning hayoti va faoliyati; - yangi o'zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; - Faynbergning hayot yo'li; - Faynberg ijodi; - yangi adabiyotning shakllanishida matbuotning o'rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - mustaqillikdan keying ijod vakillarining hayoti va ijodini o'rganilish darajasini tahlil qila olish; - adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish; - Faynbergning tarjimachilik faoliyati bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish. 				
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.				
<p>Sillabus taqvim: O'tiladigan mavzular ro'yhati:</p>					
№	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Kirish. Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi	2 soat			
2	Aleksandr Faynbergning ijodida Vatan timsoli	2 soat			
3	Tarjimon saboqlari. Rustam Musurmon: Yonib turar derazam har tun.	2 soat			
4	Shoir shaxsiyatia nazar: Aleksandr Faynberg:	2 soat			

	“Yozayotganing bu sening baxting”.				
5	Aleksandr Faynberg — O‘zbekiston kuychisi		2 soat		
6	Tarjima va ijod: tutashgan va ayro yo‘llar.		2 soat		
7	Faynbergning lirik mahorati			2 soat	
8	“Aleksandr Faynberg — o‘zbek va rus xalqlari farzandi.			2 soat	
9	Aleksandr Faynberg — mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondasi.				2 soat
10	Xalqlar do‘stligi — oliy saodat				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		<p>1. Mirziyoyev Sh.: “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.,T;2018.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017 yil, 8 fevral).</p> <p>3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008. –137 b.</p> <p>4. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston , 2009. – 75 b.</p> <p>5. Musurmonov R. Yonib turar derazam har tun. –T.: 2009.</p> <p>6. Musurmonov R. “Adiblar xiyoboni – ma’rifat bo‘stoni”. –T.: O‘zbek adabiyoti va san’ati, 2020, 19-iyun.</p> <p>7. Aleksandr Faynberg. Chig‘ir. T.: “Sharq”, 2007.</p>			
Qo‘shimcha adabiyotlar:		<p>1. Mirziyoyev Sh.: “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.,T;2018.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar</p>			

	<p>strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017 yil, 8 fevral).</p> <p>3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma‘naviyat, 2008. –137 b.</p> <p>4. Karimov I.A. Adabiyotga e‘tibor – ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor. – T.: O‘zbekiston , 2009. – 75 b.</p> <p>5. Musurmonov R. Yonib turar derazam har tun. –T.: 2009.</p> <p>6. Musurmonov R. “Adiblar xiyoboni – ma‘rifat bo‘stoni”. –T.: O‘zbek adabiyoti va san‘ati, 2020, 19-iyun.</p> <p>7. Aleksandr Faynberg. Chig‘ir. T.: “Sharq”, 2007.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta‘minoti	<ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz 2. www.e-tarix.uz 3. www.ziyouz.com 4. www.ziyonet.uz 5. www.ziyouz.com 6. www.saviya.uz 7. www.kh-davron.uz 8. www.ulugbekhamdam.uz 9. www.Natlib.uz 10. www.sharqyulduzi.uz 11. www.yoshlikjurnali.uz

“ALEKSANDR FAYNBERG HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING MA‘RUZA TEXNOLOGIYASI

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni ___ nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Muammoli ma‘ruza
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi	
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbek tili leksikaning mustaqillik sharoitidagi taraqqiyoti va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda bu jarayonda yuzaga kelgan leksik o‘zgarishlarni o‘qitishning eng samarali usullarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.	
Pedagogik vazifalar: - o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan bog‘liq jarayonlarni tanishtirish; - o‘zbek tili leksikasidagi faollashgan jarayonlarning turlari bilan tanishtirish;	O‘quv faoliyatining natijalari. <i>Talaba:</i> - -o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi masalasiga tavsif beradi; - leksik hodisalarning turlarini aytib beradi va izohlaydi;

- terminlarning taraqqiyoti va rivojini ko'rsatib berish;	- terminlarni tasnifi orqali guruhlarga ajratadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Visual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "BBB" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
O'qitish shakli	Jamoa va guruh bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Elektron doska bilan jihozlangan xona

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 10 daqiqa	O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Tipologiya tushunchisi bilan tanishtiradi. Umumiy tipologik metodni tavsiflaydi. Tillarni geneologik guruhlash qonunlarini tushuntiradi. Morfologik tipologiya usullarini izohlaydi. (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.	Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi.

		Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.
3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa	Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.	Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.
Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa	Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.	Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.

VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Ta‘lim tizimida interfaol ta‘lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta‘lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta‘lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko‘rmoq* kabi ma‘nolarni anglatadi.


Interfaol ta‘lim – ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Interfaol ta'limning asosiy belgilari



TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH


Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-

munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta‘lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.



“АҚЛИЙ ХУЖУМ” МЕТОДИ

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo’ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o’z fikrini faqat og’zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g’oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda –yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.
3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda-mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g’oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g’oyalar, ular hatto to’g’ri bo’lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida (1-chizma) “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



1-chizma. “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikir, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.


“КИЧИК ГУРУХЛАРДА ИШЛАШ” методи



“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan (2-chizma).



2-chizma. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:


1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.



Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

Keyingi yillarda ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy o‘rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim *shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim* deb nomlanadi. Ushbu ta’lim pedagog va magistrant o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1. Modulli ta’lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta’lim texnologiyasi. 3. Interfaol ta’lim texnologiyasi. 4. Individual ta’lim texnologiyasi. 5. Masofaviy ta’lim texnologiyasi. 6. Kompyuter ta’lim texnologiyasi. 7. Hamkorlik ta’lim texnologiyasi. 8. Loyiha ta’lim texnologiyasi. 9. Dasturiy ta’lim texnologiyasi. 10. Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi. 11. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. 12. O‘yin texnologiyalari. 13. Gender ta’lim texnologiyasi. 14. Quvvatni tejoychi ta’lim texnologiyasi.

Mazkur ta’lim texnologiyalaridan *modulli ta’lim, muammoli ta’lim va interfaol ta’lim texnologiyalarini* faol qo‘llash tavsiya qilinadi.

Ta’lim jarayonida faol qo‘llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys** stadi hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo‘llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishi e’tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *case* – to‘plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta‘lim) keysda bayon qilingan va ta‘lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan haqiqiy yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o‘qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg‘ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojla nishiga ta‘sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo‘yicha tezkor-so‘rov o‘tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi, baholash ko‘rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e‘tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo‘llarini aniqlashni, so‘ngra uni yechish topshirig‘ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag‘ini to‘ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakatlar qiladilar

5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkil-lashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e‘tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot Qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar
-------------------------------------	--	--

KONSEPTUAL JADVAL

O‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslashni ta‘minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o‘rgatish, muammoni tahlil qilish, ma‘lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo‘nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so‘z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo‘yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo‘yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta‘minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo‘yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo‘yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg‘ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o‘tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig‘ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Fakultativ o‘quv kursini o‘qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o‘qitishning **an’anaviy va ilg‘or usullarini, shuningdek, o‘qitishning an’anaviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, ekspress so‘rovlar, test so‘rovlari, dasturiy o‘qitish,**

davra suhbatlarini o‘tkazish, muammoli o‘qitish texnik vositalarini qo‘llash, ekskursiya va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’lim-tarbiya jarayoni mashg‘ulotlari ma’ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg‘ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo‘llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o‘quv kursini zamonaviy usulda o‘rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

–“Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig‘ish), “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish, “Akvarium”, “ Charxpalak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

–Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta’minlashga erishish.

–Talabalarning kichik guruhlariga bo‘lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o‘rgatish.

–ma’ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma’lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o‘qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

–Test savollari tuzish.

–“Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o‘zlashtirishda ko maklashish.

–talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko‘rgazmali ma’ruza qilishga o‘rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o‘quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

–tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o‘quv kurs mavzularni o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa

bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

–O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg'ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

–O'z-o'zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o'z bilimini o'zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

–Fakultativ o'quv mavzulari bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o'rganish;

–Talabalarning mustaqil ta'lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o'quv kursining muayyan mavzularni chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

–Internet materiallari.

–Audio manbalar.

–Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.

Avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg'ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi.

1.Darslik, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlarning tegishli mavzularini o'rganish. Bunday tashkiliy shakl, odatda, barcha kurs talabari uchun tavsiya etiladi. Talabalarda, ayniqsa, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash malakasini oshirish zarur. Bunday ish natijalari seminar va referatlar, individual berilgan vazifalar bo'yicha tekshiriladi.

2.Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berish lozim. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-8 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3.Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash, Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar

tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

4. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

5. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uning taqdimoti tashkil qilinadi. Talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi, o'quv materialining mohiyatini tushunadi.

6. Aleksandr Faynberg asarlarining mazmun-mohiyatini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, ularni tahlil qilish, mashq va amaliy ishlar bajarish. Bu ish belgilangan semestrda bajariladi va reyting nazoratida aks etadi.

7. Fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'rganish. Bu ish ham belgilangan semestrlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

8. Bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, dastur materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.

9. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish hamda fanning muayyan qismlarini chuqur o'rganish, fan o'qitish metodidan foydalanganda o'quv mashg'ulotlari davomida talabalar tomonidan ta'lim, fan va texnologiyalardan foydalanish, ta'lim olishni avtomatlashtirish. Mustaqil ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan ham keng foydalanish talabalarning ilmiy, texnik, badiiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH:

Taqdimotlar fakultativ o'quv kursda olingan bilim, malaka va ko'nikmaning amalda qo'llanilishi, ya'ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini

ko'rsatuvchi indikator vazifasini o'taydi. Taqdimotlar o'quv taqvimiy rejada ko'rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag'ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko'mak beriladi :

– fakultativ o'quv kursi mavzulari bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o'rganish.

– internet materiallarini topish va umumli foydalanish;

– audivizual manbalardan foydalanish;

– axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI:

1. Aleksandr Faynberg ijodini o'rgatishning maqsad va vazifalari.
2. Aleksandr Faynberg hayot yo'li.
3. Aleksandr Faynberg ijodida Vatan timsoli: hayot yo'li, tavsir vositalari va timsol.
4. Tarjimon saboqlari. Rustam Musurmon: Yonib turar derazam har tun.
5. Shoir shaxsiyatiga nazar: Aleksandr Faynberg: "Yozayotganing bu — sening baxting".
6. Xalqlar do'stligi — oliy saodat.
7. Aleksandr Faynberg — o'zbek va rus xalqlari farzandi.
8. Faynberg — O'zbekiston farzandi.
9. Aleksandr Faynberg — mustaqillik davri O'zbekiston adabiyotining yetuk namoyandasi.
10. O'zbek tilidagi Faynberg she'rlarining tarjima va lirik xususiyatlari.

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

MA'RUZALAR

Birinchi mashg'ulot: Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi.

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan Adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning ulug' namoyandalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham o'rnatildi. Shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod sohiblaridan biri edi. U ibratli ijodiy faoliyati uchun davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Aleksandr Faynberg 1939-yili 2-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Ommaviy qatag'on, deb atalgan balo-qazoning alangasi lovullab, ho'l-u quruq baravar yongan mash'um zamon zug'umidan uning oilasi ham benasib qolmagan.

Aleksandr Faynberg hayoti va ijodini o'rganishning ahamiyatini bugungi milliy g'oya va mafkura negizida tushuntirib o'tadi.

Interfaol metod

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Aleksandr Faynberg hayoti va ijodini o'rganishning muhim jihatlarini yoritish, Aleksandr Faynberg faoliyati va qarashlarining keng targ'ib etilishi va o'rganilishi masalalariga bag'ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

Qo‘llash: Tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, Aleksandr Faynberg faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Jahon adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Faynberg hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san‘at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika.

Ma‘ruza matni: Aleksandr Faynberg Arkadevich — rus shoiri, O‘zbekiston xalq shoiri. O‘zbekiston shoirlari osmonida Aleksandr Faynberg, shubhasiz, eng yorqin yulduzlardan biridir.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentda — otanasini 1937-yil Novosibirskdan ko‘chib kelgandan so‘ng tug‘ilgan.

Sobiq Jukovskiy ko‘chasida uning bolaligi o‘tgan. Yetti yillik maktabni tamomlagach, Aleksandr Faynberg Toshkent topografik texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumni tugatgach, Tojikistonga harbiy xizmatga ketadi. So‘ngra, Toshkent universitetini (hozirgi Toshkent davlat milliy universitet) sirtqi filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limini tamomlaydi. 1961-yil I.N.Koval bilan turmush qurishadi.

ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan. (1965) O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi (1965–1969) lavozimida ishlagan.

U o‘n beshta she‘riy kitob muallifi hisoblanadi. U Alisher Navoiyning dostonlarini va she‘rlarini, shuningdek, boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlarining she‘rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning she‘rlari “Смена”, “Юность” (“Yoshlik”), “Новый мир” (“Yangi dunyo”), “Звезда Востока” (“Sharq yulduzi”), “Новая Вольга” (“Yangi to‘lqin”) jurnallarida va AQSh, Kanada va Isroil kabi xorij mamlakatlarining vaqtlil matbuotlarida chop etilgan.

1999-yil “Paxtakor” futbol jamoasining fojiali aviahalokatdagi o‘limining 12 yilligi munosabati bilan uning ssenariysi asosida “Ularning to‘p maydoni osmonda” nomli film suratga olingan, filmda jaranglagan qo‘shiq matni 1979-yil yozilgan Aleksandr Faynberg qalamiga mansub.

Bir necha yillar mobaynida A.A.Faynberg Toshkentdagi O‘zbekiston yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi hisoblangan.

2004-yil shoir A.A.Faynberg Rossiya Prezidenti farmoni bilan Pushkin medali bilan taqdirlangan. Ushbu yuqori mukofotga u Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda rus tili va rus madaniyatini saqlab qolishdagi ulkan hissasi uchun sazovor bo‘lgan.

O‘zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a‘zosi Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo‘shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlangan (2009).

Uning qalamiga to‘rtta uzun metrajli badiiy filmlar, jami yettita badiiy film ssenariysi mansub bo‘lib, Faynberg ssenariysi asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Eng ko‘m-ko‘k osmon ostida”, “Tojikfilm” kinostudiyasida esa “Jinoyatchi va oqlovchilar” va boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Uning nasri katta qiziqish uyg‘otadi.

Ajoyib tarjimon Faynberg ruszabon kitobxonga taniqli o‘zbek shoirlarining ko‘plab asarlarini ochib bergan. Moskvada Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchonlarning she‘rlari jamlangan “Oq qushlar galasi” to‘plami nashrdan chiqqan.

Faynberg she‘rlarida uchqunli hajviya mavjud. “Ruboiy tori” dostonida u kulgu orqali o‘zbek choyxonasini o‘zgarmas oshini shunday tasvirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o‘qib bo‘lmaydi. Faynbergning she‘riy ijodida o‘tmish bilan hozirgi kun, G‘arb bilan Sharq, milliylik bilan baynalmilallik o‘zaro tutashib, o‘ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o‘zining insoniy mohiyatini to‘la saqlab qolgan, o‘zgaga mehr-shafqat va madad qo‘lini uzatishga tayyor, ayni paytda yer kurrasida sodir bo‘layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi jo‘mard insondir. Faynbergning she‘riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari sintezlashgan. Sharq mumtoz she‘riyati an‘analari ham uning ijodiy uslubiga begona emas.

Shoirning ijodi sermahsul va keng ko‘lamli. Uning she‘rlarida rang-baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg‘ular tiniqligi yarqirab turadi. Shoir so‘zni chuqur his etadi, bu hisga o‘quvchini ham hamroh qiladi. U O‘zbekistonda yashadi va ijod qildi. Bu yurtning havosi, osmoni, tuprog‘i, eli, bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘i shoirga she‘r qadar, qalb qadar aziz. Bu shoir satrlarining, asarlarining haroratida bor bo‘yi bilan ko‘rinadi, bo‘ylari nafasimizga uriladi.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 2009-yil 14-oktabr kuni Toshkentda vafot etgan.

To‘plamlari:

* “Velotrekklar” (1965);

* “Etyud” (1967);

* “Soniya” (1969);

* “She’rlar” (1977);

* “Olis ko‘priklar” (1978);

* “Osmon muhri” (1982);

* “Ijobat” (1982);

* “Qisqa to‘lqin” (1983);

* “Yoymato‘r” (1984);

* “Erkin sonetlar” (1990);

* “Varaq” (2008);

* Muallif tomonidan to‘plangan 2 tomlik asarlar to‘plami ijodkor vafotidan so‘ng nashr qilingan.

Taniqli shoirning o‘zbek tiliga o‘girilgan she’rlari “Chig‘ir” kitobida o‘quvchilar qo‘liga borib yetdi.

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDAN NAMUNALAR:

Umring bo‘yi ishonging kelar
Buyuk bo‘lib tug‘ilganingga.
Farishtalar ishora qilar
Deya ko‘kdan sen kelganingga.

Umr o‘tdi. Chang-to‘zon aro
Bilmay bormi yo eding yo‘qdan.
Yer ostiga chorlaydi sado,
Lek ishorat bo‘lmadi ko‘kdan.

Kechikadi poyezdlar ba‘zan,
Uchoqlar ham kechikar, ammo
Chin kulfatdir mabodo inson
Aytar so‘zi kechiksa, illo.

O‘chib qolgan gulxanday g‘amlar,

Tambalangan oynaday bu kez
Uni kecha kutgan odamlar
Kabi so‘z ham bo‘zlaydi yolg‘iz.

Olis boqqan o‘rmonlar ichra
Ma’yus tortar olis yo‘l pinhon.
Saf -saf tortgan qabrlar uzra
Manzili yo‘q, cheksizdir osmon.

Nelar ro‘y bermoqda men bilan, bilmam,
Vaqt otni surdimi aziz, mukarram.
Qirq yoshimda o‘ttiz yoshday shod, xurram,
Ellikda — ellikning yarmiday ko‘rkam.

Tasavvurga sig‘mas qaysi xato yo‘l,
Gunohlarim chizib borar taqdirim.
Men yosharib borayapman yilma-yil,
Do‘stim, nima kutar mendan oxirim?

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. O‘zbek va jahon adabiyotida Aleksandr Faynberg singari “ikki xalq farzandi” unvoniga sazovor bo‘lgan yana qaysi ijodkorlarni bilasiz? Sizningcha, bunday sharafiga sazovor bo‘lish uchun ijodkorda qanday insoniy va ijodiy xususiyatlar bo‘lishi kerak?

2. Faynberg she’riyati namunalari bilan tanishib chiqing. Shoirning asosan qanday yo‘nalishlarda ijod qilganligini misollar bilan isbotlang.

3. “Kechikadi poyezdlar ba’zan...” she’rini mutolaa qiling. Undagi sharqona falsafa va g‘arbona tasvir vositalarining chog‘ishtirma uslubini misralardagi misollar orqali isbotlang.

4. Shoir she’rlaridan birini yod oling.

Ikkinchi mashg‘ulot: Aleksandr Faynberg ijodini o‘rgatishning maqsad va vazifalari.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

“Ona shahrim — Toshkentim” nomli nasriy asarida shunday yozadi: “Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo‘lib kelganman. Mana, u bamisoli kaftimning ustida turgandek butun borlig‘i bilan ko‘rinmoqda. O‘n sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho‘zilib ketgan tarxiga boqaman va ich-ichimdan o‘kinaman. O‘kinaman, o‘ksinaman! Bu shahar revolutsiya yillarida mening yolg‘izgina onamni Magadan ostonasiga uloqtirib yuborgan edi. Ko‘p yillar o‘tgandan so‘ng faqatgina Toshkent uni o‘z bag‘riga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolgan vujudini mehr bilan isitdi”.

Qalbi quyoshdek issiq, bag‘ri keng, oq ko‘ngil o‘zbek xalqning mehr-u saxovatidan bahramand bo‘lganini taqdirning cheksiz inoyati va rahm-u shafqati deb biladi shoir. Agar ota-onam Toshkentga kelmaganida urush payti nemis-fashistlar qirg‘inidan omon qolmas edik, balki men hali dunyoga kelmasdanoq juvarmarg bo‘lar edim, degan iqrorini takror-takror eshitganmiz. “Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqinidagi Gatchina shahrida tug‘ilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan ko‘chib kelishgan. Hoynahoy, men aynan shu yerda tug‘ilishim uchun ko‘chib kelishgan bo‘lsa kerak...” Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna Faynberg.

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta’lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot davomida olingan tushunchalar asosida milliy pedagogikamizning ilk ko‘rinishlari, o‘qitish tizimi, Faynberg ijodi xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

Qo‘llash: tajribali pedagog, san’atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

Natija: Aleksandr Faynbergning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, ahamiyatini tushunib yetadilar.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika.

Ma’ruza matni: Aleksandr Faynberg 1939-yili 2-noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Ommaviy qatag‘on, deb atalgan balo-qazoning alangasi lovullab, ho‘l-u quruq baravar yongan mash‘um zamon zug‘umidan uning oilasi ham benasib qolmagan.

“Ona shahrim — Toshkentim” nomli nasriy asarida shunday yozadi: “Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo‘lib kelganman. Mana, u bamisoli kaftimning ustida turgandek butun borlig‘i bilan ko‘rinmoqda. O‘n sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho‘zilib ketgan tarxiga boqaman va ich-ichimdan o‘kinaman. O‘kinaman, o‘ksinaman! Bu shahar revolyusiya yillarida mening yolg‘izgina onamni Magadan ostonasiga uloqtirib yuborgan edi. Ko‘p yillar o‘tgandan so‘ng faqatgina Toshkent uni o‘z bag‘riga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolgan vujudini mehr bilan isitdi”.

Qalbi quyoshdek issiq, bag‘ri keng, oq ko‘ngil o‘zbek xalqning mehr-u saxovatidan bahramand bo‘lganini taqdirning cheksiz inoyati va rahm-u shafqati deb biladi shoir. Agar ota-onam Toshkentga kelmaganidaurush payti nemis-fashistlar qirg‘inidan omon qolmas edik, balki men hali dunyoga kelmasdanoq juvarmarg bo‘lar edim, degan iqrorini takror-takror eshitganmiz. “Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqinidagi Gatchina shahrida tug‘ilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan ko‘chib kelishgan. Hoynahoy, men aynan shu yerda tug‘ilishim uchun ko‘chib kelishgan bo‘lsa kerak...” Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna Faynberg.

Shuning uchun Aleksandr Faynberg O‘zbekistonni ona Vatanim deya jondan ortiq sevadi. Ona deya ardoqlagan Vatanga mehr-u muhabbat, shukronalik tuyg‘ularini izhor etishdan tolmaydi. She‘rlari, nasriy asarlarida O‘zbekistonning jannatmonand manzaralarini, xalqimizning milliy urf-odatlarini, yuksak madaniyati va ma’naviyatini tasvirladi. Tasvirlaganda ham samimiy, yurakni jiz etkazadigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodaladi:

“Yelena Sergeyevna Bulgakova, Anna Axmatova, Faina Ranevskaya, Vladimir Lugovskiy ko‘chib kelgan uylar... Aleksey Tolstoy hovlisi... Tatyana Sergeevna Yesenina boshpanasi... Mening jonajon shahrim - ona Toshkentim o‘sha yillarda, eh-he, xonadonlariga urush o‘t qo‘ygan yana qanchadan qancha odamlarning jonini saqlab qolmadi deysiz. 1937-yilda bu yerga ko‘chib kelishgan va 1939-yilda meni dunyoga keltirishgan ota-onam haqida gapirmasam ham bo‘ladi...”

Sashaning bolaligi Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keladi. 1941-yilda u atigi 2 yoshda edi. O'sha musibatli yillardagi mash'um voqealar Sashaning yuragida chuqur jarohat chandiqlarini qoldiradi. Uning "1941", "1942-yilning kuzi", "Toshkent. 1943", "Arg'un" sarlavhali she'rlarida murg'ak yurak jarohatidan silqigan qonni ko'rasiz, inson faryodini eshitasiz.

Olti oyki, Lidya xola devona —

O'g'illari o'lgan ona kutar xat.

Yakanchi eshikda bamisli kalxat

Eski buyumlarga bo'lar parvona.

Azob-uqubat manzaralari, o'sha paytdagi xalqning ahvoli, beshafqat ocharchilik tasvirlanadi. Shoir hatto hukmron mafkuraning tazyiqlaridan ham cho'chimay haqiqatni yozadi, yana ular tushunadigan rus tilida yozadi.

Badanda suzadi yozning kemasi.

Suratda iljayar xalqlar otasi.

Bu surat ostida non yo'q magazin.

"Karpattog'lari" nomli she'rida ikki aka-uka gusul singlisiga oshiq bo'lgan navqiron yigitni o'ldirib, uning jasadini yashirincha yerga ko'mishganini yozadi. (Qotillar)

Tark etarkan marhum ko'milgan joyni,

Boy emas ekan deb alam tortishdi.

Belkurak sopiga yopishgan loyni

"Pravda" gazetini bilan artishdi" — deydi Aleksandr Faynberg. O, haqiqat, qayerda eding, zulm-u zo'ravonlikni "Pravda" — "Haqiqat" gazetasi nafaqat ko'rib ko'rmaslikka oladi, hatto qotillarning iflos gunohlarini go'yo hech narsa bo'lmaganday artib tozalab qo'yadi, demak, sho'ro matbuoti sho'ro hokimiyatining jinoyatiga sherik, degan fikrlarni dadil bayon etadi.

Shunday og'ir davrda O'zbekistonning, o'zbek xalqining matonati va mehribonligini takror-takror madh etadi. U paytda hamma o'z jonini qutqazishni o'ylar, lekin odamgarchiligi baland o'zbeklar boshiga musibat tushgan millatlarni o'z bag'riga olib, boshini silaganini she'rlarida cheksiz minnatdorlik tuyg'usi, qaynoq mehr bilan e'tirof etadi. O'zining yeb turgan nonini boshqalar bilan baham ko'rgan, madadga muhtojlarning jonini saqlab qolgan millatga boshi yerga tekkudek ta'zim qilib, rahmat aytadi.

Urush davrida chiroq yoqish, primusda issiq ovqat tayyorlash uchun kerosin topilmas, hamma yonilg'i frontga jo'natilar edi. O'zbeklar shunday og'ir vaziyatda yo'qdan bor qilib, Ranevskayaga kerosin topib berishadi, Axmatovaga xonadoni eshigini keng ochishadi, kabi hayotiy faktlarni badiiy tasvirlaydi Faynberg.

Boshingni silaydi o'zbek mehribon.

Ranevskaya¹ yo'qdan topgan kerosin.

Axmatovaga² keng ochiq xonadon.

Vatan manzaralari tasviridagi tashbehlar, chizgilar tiniqligi bilan e'tiborni tortadi. “Меж знойными квадратами полей”, “пирамидалных тополей” kabi geometrik ifodalar shoirning go'zallikni ko'rish va his etish usulini ko'rsatadi. She'rning o'zbek tiliga tarjimasida biz bu o'xshatishlarni “to'rtburchak dalalar”, “gumbazdek teraklar”ga qiyosladik. Osmonda uchayotgan samolyot elyuminatoridan yerga qaraganingizda dalalar to'rtburchak-to'rtburchak bo'lib ko'rinadi. Teraklarni piramida o'xshatish shoirning betakror tasavvur olamini namoyon etadi.

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to

Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan —

Yo'llarning girdida bo'lib girgitton

Gumbazdek teraklar turarlar qator.

She'r xayol va tasavvur mahsuli, lekin o'sha xayol hayotiy bo'lmasa, unga hech kim ishonmaydi. Aleksandr Faynberg o'smirligida geodeziya bilim yurtida tahsil olgan. Tanobchi — yer o'lchovchi mutaxassisligini egallagan. Kasb taqozosiga ko'ra mamlakatimizning keng sahrolari, yuksak tog'larini yer o'lchab, kezib chiqqan. Kasbi tanobchi bo'lgani bilan qalbi shoir edi. Keyinchalik u Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetida tahsil oladi. Lekin cho'lma-cho'l, tog'ma-tog' kezganida ko'rgan go'zal manzaralar uni o'ziga maftun etadi. Tuyg'ulari she'rga aylanadi. Sariosiyo tog'laridagi ilmiy ekspeditsiya safarida yer o'lchovchilarning uchta oti baland qoyalaridan jarga qulab nobud bo'lgani voqeasi ta'sirida “Geodeziya. Uchta tulpor ot” nomli she'r yozadi. Otlarning terisini mas'ul idoraga topshirib, bu baxtsiz tasodif haqida dalolatnoma tuzishadi. Hamma taqdirga tan berib, bu voqeani unutadi. Lekin shoir iztirobga tushadi. Xayolida otlarning taqalari yulduzlar ichra uchqun sachratib, dupurlaydi. Qop-qora yollari shamolda tunde to'zg'iydi. Otlar Somon yo'li ko'prigidan koinot sari yelib uchadi, deydi. Oy — mening yuragim to'lqinlari tezligini o'lchovchi radar, uchta tulpor ot izidan mening yuragim ham duldul otdek qanot chiqarib osmonga uchib bormoqda, deydi.

So'lim qishloqlar, ko'ksidagi qovurg'alari ostidan yuragi ko'rinib turgan odamlar hamisha uning dardiga malham bo'ladi.

Dalalarni kezdin qadamma-qadam,

Teodolit³ ko'tarib o'lchadim tanob.

Loysuvoq uylarda simirdim chalob,

¹Фаина Раневская – машхур театр ва кино актрисаси, СССР халқ артисти, уруш йилларида Тошкентда яшаган.

² Анна Ахматова – буюк рус шоираси, Иккинчи жаҳон уруши йилларида Тошкентда яшаган.

³ Теодолит - ер ўлчагич асбоб.

Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.

Xalqimizning tantiligi, mehmondo‘stligi, qishloqlardagi odamlar uylarining eshiklarini hech qachon qulflamasligi, dasturxonini esa doimo ochiq ekani uni ta’sirlantiradi. O‘zbekka xos bo‘lgan saxovat, ishonch va sadoqat singari insoniy tuyg‘ular butun jahonda noyob va yagonadir, bunday yurtning oldida Yevropa hech nimadir, deydi shoir. Va shunday Vatani borligidan faxrlanadi. O‘zini shu Vatanning ajralmas bir parchasi, shunday buyuk yurtning bir kichik zarrasiman deb hisoblaydi.

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim —

O‘zbekistondadir hokim, turobim.

Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

“Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham” satri rus tilida asliyatida “Au, Yevropa, ya vas ne znayu” deb yozilgan. Bu shoirning e’tirofi. Mening Vatanim O‘zbekiston, mening ildizim shu yerda, boshqa bironta yurt menga O‘zbekistondek mehribon, aziz va qadrdon bo‘la olmaydi, degan so‘zlarni dangal aytadi Aleksandr Faynberg.

U o‘zbekona milliy qadriyatlar ruhida o‘sdi-ulg‘ayadi, uning shaxs va shoir sifatida shakllanishida o‘zbek madaniyati, o‘zbek adabiyoti katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bir maqolasida shunday yozadi: “Peshonamga bitilgan baxtim bor ekan. Men Mustaqil O‘zbekistonda yashayman... Adabiyot yo‘lida menga o‘zbek yozuvchilari juda ko‘p bora yordam berishdi. Butun ijodim davomida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va yana ko‘pdan ko‘p yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, boshqa turli kasb egalarining yaxshiliklaridan bahramand bo‘lib kelmoqdaman.

Yaxshilik va baxt hamisha yonimizda”.

Sharqona she’riyat falsafasi, san’ati, ohangi uning badiiy so‘z haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib yuboradi. Aruzning ohanrabosi, Shashmaqom uning bir hayratiga yuz hayrat qo‘shadi. Nazm mulkingning sulтони Alisher Navoiy g‘azallarini rus tiliga tarjima qiladi. Baytlarning sehr-u jozibasini uyg‘otgan his-tuyg‘ular, sezgilarni she’rga soladi:

Nazm — navo, nazm — iltijo,

Sharqni tinglab nash’a olursan.

Cho‘ziladi karvondek hijo,

Chilim kabi tutab yonursan.

Hikmatli ruboiylar ta’sirida “Ruboiyyat torlari” nomli doston yozadi. Sharq olamining yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlariga hamohang taronalarni kuylaydi. Gulning o‘zi ham, surati ham — gul. Go‘zallik hech qachon yovuzlikka xizmat qilmasligi kerak. Naqqoshlik san’ati vositasida o‘z fikrlarini badiiy bayon etadi:

*O'tkir tig'ga naqsh o'yima, usta,
Sovuq tig' do'st emas kishiga —
Naqshni bo'yar kimningdir qoni,
Sachragandek yirtqich tishiga.*

Yovuz odamning qo'lidagi pichoqni yirtqich hayvonning tishiga o'xshatadi. Temirchi ustaga pichoqqa naqsh o'yima, deya iltijo qiladi. Sening yaxshi niyating, ezgu amallaring odamlarga baxt-u saodat ulashsin, deydi.

*Yangi uyning darvozasiga
Guldor naqsh o'yganing yaxshi —
Ostonadan g'am-kulfat emas,
Baxtning qadam qo'ygani yaxshi.*

Bizning milliy qadriyatlarimiz — dunyodagi eng yuksak umuminsoniy qadriyatlarning gultojidir. Yaxshilik, olijanoblik, to'g'rilik, mardlik, mehr-saxovat jahondagi hamma xalqlar uchun qadrlil. Shoir mana shularni anglay bilgan, his qilgan va she'rlarida aks ettirgan.

Shoir befarq va xudbin odamlarning yuziga she'riy ko'zgu tutadi:

*Ko'kragingda jomdek ichi bo'sh yurak,
Tili yo'q qo'ng'iroq kabi chalmas zang.*

Uning she'rlari insonni matonat, mustahkam iroda egasi bo'lishga, orzular sari olg'a intilishga da'vat etadi. She'r ohangiga e'tibor bersangiz, satrlar tog'dagi shaloladek tezbob va sharqirab oqadi.

*Ovga chiqsang, o'q ota,
Baxt bo'lgay uch bor ato.
Bir o'q — xato, ikki o'q — xato,
Uchinchi o'q — bexato...*

“Ona shahrim — Toshkentim” essesinde yozadi: “Mening o'limimni arshi a'lodagi devonxona qanday hal qilsa, o'zi biladi. Hozircha esa, Xudoga shukur, ariqlar bo'yidagi charxpalaklar g'ildiragingning g'ichirlashini, osmonda uchayotgan samolyotlar tovushini eshitib turibman. Toshkentlik bolakaylarning omonligidan, qizaloqlarning shodmonligidan xursandman. Ular bizdan ham zo'r bo'lishini, bizdan ham zo'r yashashini Xudodan so'rayman”.

Aleksandr Faynberg tavalludining 70 yilligiga ikki hafta qolganida vafot etdi. Ona Toshkent tuprog'i uni o'z bag'riga oldi. Shoirdan boy adabiy meros, Vatan, olam va odam haqidagi dilrabo she'rlar qoldi. Umumxalq bayramlari va sayillarda uning she'rlari qo'shiq bo'lib yangramoqda. Uning so'zi, ruhi biz bilan birga yashamoqda.

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDAN NAMUNALAR:

Suzayapman, muhabbat, olis
Gulxanlardan o'rlaydi tutun.
Sendan bo'sa oladi yulduz,
Bu qirg'oqdan ketaman bugun.

Qirg'oqqa tashlayman langarcho'p,
Izmiga soladi moviy suv.
To'lqinlari yugurik, to'p -to'p
Daryo tubi — adabiy g'uluv.

Daryo bo'ylab oqim betizgin,
Tikilasan samoda — qushlar.
To'lqinlar ham ayriliq hissini
Sezgan kabi bir-birin ushlar.

Sirg'aladi bo'zlaring qaynoq,
Ko'rinmaydi gulxan tutuni.
Bulutlarning ortida — qirg'oq:
— Kechir! — ko'kka sig'maydi uning.

Ko'klam o'tdi—qabristonga kelmadim,
Bo'sag'ada ko'zim tushdi nogohon.
Ko'kdan tushayotgan qormas, bilmadim,
Onamning ro'moli edi shodumon.

Yoxud ko'zlarimga ko'rindimi u?
Hovlimda—noyabr. Sezdim bu damni—
Tug'ilgan kun. Tug'ilgan kun edi bu —
Noyabr —tavallud oyi onamning.

Tubi yo'q dengizdan boq
Yulduzlar yorug', chaqnar.
Chetlari qirra yaproq,
She'rim asra jon qadar.

Aytib bo‘lmaydi barin,
Hayot satrin bit, qalbm.
To‘qayzor so‘qmoqlari,
Ko‘l qamishzori kabi.
O‘rmon yalangliklari,
Qushli, bulutli, sayroq
She’rlarim borgan sari
Sen bilan qondosh, yaproq.

Avlodlarga pok hissim
Eltib berguvchi sasim —
Shamol, barglar, dengizim
Tabassumi, nafasi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

- 1. Vatan tuyg‘usi nima? Fikrlaringizni Faynberg hayoti va ijodidan keltirilgan misollar orqali isbotlang.**
- 2. “*Boshingni silaydi o‘zbek mehribon*” misralari orqali ijodkor qanday milliy va umuminsoniy g‘oyalarni ilgari surmoqchi bo‘lgan?**
- 3. “Ko‘klam o‘tdi — qabristonga kelmadim...” she’rini mutolaa qiling. Undagi o‘zbek xalqi mentalitetiga xos unsurlarni aniqlang.**
- 4. Shoir she’rlaridan birining yod oling.**

Uchinchi mashg‘ulot: Tarjimon saboqlari. Rustam Musurmon: Yonib turar derazam har tun

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

Uning qalamiga to‘rtta uzun metrajli badiiy filmlar, jami yettita badiiy film ssenariysi mansub bo‘lib, Faynberg ssenariysi asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Eng ko‘m-ko‘k osmon ostida”, “Tojikfilm” kinostudiyasida esa

“Jinoyatchi va oqlovchilar” va boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Uning nasri katta qiziqish uygʻotadi.

Ajoyib tarjimon Faynberg ruszabon kitobxonga taniqli oʻzbek shoirlarining koʻplab asarlarini ochib bergan. Moskvada Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchonlarning sheʼrlari jamlangan “Oq qushlar galasi” toʻplami nashrdan chiqqan.

Interfaol metod

Oʻqituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining toʻrt bosqichi yozilgan qogʻoz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni toʻldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Aleksandr Faynberg tarjimalari qanday gʻoyalarni aks ettirgan? savoli boʻyicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab koʻrsating;

M – koʻrsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning oʻzlari yozgan fikrlarini oʻqib himoya qilishlari soʻraladi. Bu texnologiya tinglovchilarni oʻz fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va oʻz fikrini boshqalarga oʻtkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini oʻrgatadi. Oʻqituvchi esa ularning fikrlarini toʻgʻri yoʻnaltirish orqali mavzuni toʻgʻri anglashlariga harakat qiladi.

Qoʻllash: adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi bilan birgalikda interfaol uslubda mashgʻulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda Aleksandr Faynbergning tarjimon, noshir sifatidagi faoliyati haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Aleksandr Faynberg milliy matbuotimiz rivojiga qoʻshgan ulushi, maqola va xabarlarining qanday maqsadlarga xizmat qilganligi, tashqi davriy nashrlardagi ishtiroki masalalarini tahlil etadilar. Aleksandr Faynbergtil, madaniyat, matbuot, taraqqiyot haqidagi fikrlarining bugungi kunda ham naqadar dolzarbligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, tanqid, senzura, muharrirlik faoliyati.

Ma’ruza matni: O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynbergning she’rlarini bundan o‘n yil burun tahririyat topshirig‘iga binoan tarjima qilganman. Ertasiga gazeta sahifalanadigan kun bo‘lgani uchun bir kechada “Priisk” kitobidan beshta she’rni rus tilidan o‘zbekchaga o‘girishimga to‘g‘ri keldi. Noyabr edi. Eski hovlidagi so‘ruda qog‘ozga yozganlarimni chizib o‘chiraman, so‘zlarni pishitishga harakat qilaman... Shu tariqa ilk tarjimam “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida bosilib chiqdi. Ushbu misralar Aleksandr Faynbergdan men dastlab tarjima qilgan she’rdan:

Qabristonga bordim, qish — bahor emas,

Yuragimga esdi mezon shamoli.

Osmondan yog‘ayotgan oppoq qor emas,

Onamning bor-yo‘g‘i bitta ro‘moli.

Shoir she’riyati o‘shanda meni mahliyo etdi. Shu-shu Aleksandr Faynbergni majburiy emas, ixtiyoriy ravishda tarjima qiladigan bo‘ldim.

* * *

“Peshonamga bitilgan baxtim bor ekan, — deb yozadi Aleksandr Faynberg. — Men mustaqil O‘zbekistonda yashayman. O‘z umrim davomida milliy kamsitishni hech qachon his etmaganman.

Adabiyot yo‘lida menga o‘zbek yozuvchilari juda ko‘p bora yordam berishdi. Butun ijodim davomida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va ko‘pdan-ko‘p yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, boshqa turli kasb egalarining yaxshiliklaridan bahramand bo‘lib kelmoqdaman”.

O‘z navbatida, Faynberg ham o‘zbek adabiyotiga ehtiromi ramzi sifatida Navoiy bobomiz g‘azallarini, Asqad Muxtor, Jumaniyoz Jabborov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyun she’rlarini rus tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Bu katta do‘stlik, yuksak ijodiy hamkorlikning yorqin namunasi. Men ustozimiz, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning Faynberg haqidagi e’tirofini eshitganman: “O‘zbekistonda yashaydigan rusiyzabon shoirlar orasida Aleksandr Faynbergga tenglashadigani chiqqan emas. Umuman, sobiq ittifoq doirasidagi rus she’riyatida Aleksandr Faynberg eng yuksak maqomlardan birini egallaydi. Uning ijodi O‘zbekistonda g‘oyat qadrlandi. Biroq hali shoir katta rus adabiyoti miqyosida munosib bahosini olgani yo‘q”.

Abdulla aka Faynbergning bir she'ring mazmunini aytib yuradi: men qing'ir-qiyshiq oynaga qarab kulaman, yig'lash uchun esa oddiy oynaga qarasa ham bo'laveradi... Naqadar teran teshbeh!

Ustozning shu gapidan so'ng men shoirning o'sha she'rini topib tarjima qildim.

* * *

Aleksandr Faynbergning "O'n bir metrlik jarima to'pi" degan she'ri bor. Unda futbol maydonidagi o'yin, darvozabon obrazi ifodalangan. She'rda darvoza — Vatan, futbol jamoasi — xalq, darvozabon — Vatan daxlsizligini, xalq g'ururini, ozodligini qo'riqlovchi posbon ramzida tasvirlanadi. Unda shoirning butun mahorati bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi.

Darvozaga qulf kabi osildim.

Har tepilgan to'pga o'qdek otildim —

deydi darvozabon. No'noq himoyachining xatosi tufayli darvozaga o'n bir metrli jarima to'pi belgilanadi. "Tushunmadim nechun himoyachimiz bekorga yiqitdi "to'qqizinchi"ni", deb o'kinadi darvozabon. Bu futbol o'yinidan reportaj yoki sharh emas, balki jonli tasvirdir. U hujumchi bilan yuzma-yuz maydonga, kurashga chiqadi.

"To'qqizinchi" bilan chiqdim birga-bir.

U yugurib keldi...

To'p tepdi, og'ir!

Oh, uning zarbida buncha qahr-g'am!

Men to'pni osmonga o'ynab yubordim.

Temir shtangaga tegib qobirg'am

Zafar burg'usidek kuylab yubordi.

Satrlarning bo'linib-bo'linib yozilishi, shiddatli ohang darvozabonning harakatini ko'rsatadi. She'rda darvozabonning ruhiy holati, iztirobi, orzu va quvonchi mahorat bilan qalamga olingan.

Hujumchi shuhrati menga ne darkor?

Hech qachon urmasman darvozaga gol.

O'zimni nishonga qo'yib fidokor,

Jamoam sha'nini asrayman halol.

Toki mana shunday fidoyi, mard va jasur darvozabon bor ekan, hech qanday hujumchi o'z maqsadiga erisha olmaydi. Bu hayot o'yinlarida qahrli hujumchilar, g'irrom hakamlar, aldab o'tadigan o'yinchilar emas, irodasi mustahkam posbonlar g'olib bo'laveradi, degan mantiqiy va go'zal xulosa bilan tugaydi she'r.

* * *

“Bulbulning xushovoz sayrashi hammaga birdek yoqimli eshitilganidek otashnafas shoirlarning she’ri ham dunyoning barcha burchagida birdek jaranglaydi, hammani o‘ziga maftun etadi, hayratlantiradi”, degan edi ustozlardan biri.

Demak, she’riyat tili san’at va musiqa tilidek chegara bilmaydi. Aytmoqchimanki, Aleksandr Faynberg rus tilida yozsa ham, uni tushunish men uchun unchalik qiyin bo‘lmadi. Chunki shoir she’rlarining obraz va timsollarini, ruhini, shakl va mazmunini tushunib olish kifoya. Men tushunganlarimni o‘zbek tilida so‘zlab berdim, xolos. Bu noyob me’moriy obidani tomosha qilib, uni ko‘rmaganlarga naqshi bunday ekan, ustunlari-yu koshinlari, mahobati bunday ekan, deb ta’riflab berishga o‘xshaydi. Shu o‘rinda Aleksandr Faynberg she’riyati mo‘jizalaridan, badiiy san’atlaridan bir necha misollar keltiraman va ularning o‘zbekcha shakllariga diqqatingizni jalb etaman.

Asliyat:

Я вис на сетке, как замок.

Был бог,

Мячи снимая с ног.

Я оба тайма был сторук.

Теперь «одиннадцать».

Каюк.

Tarjima:

Darvozaga qulf kabi osildim.

Nar tepilgan to‘pga o‘qdek otildim.

Ikkala taymda ham

zo‘r qalqon bo‘ldim.

Endi «o‘n bir metr».

Endi men o‘ldim.

Asliyat:

Я разминаю руки,

плечи.

Я убираю чуб со лба.

Ну что ж,

целуй меня покрепче,

моя футбольная судьба!

Tarjima:

Qo‘l-yelkalarimga tob beraman xo‘b.

Qayiraman ko‘zga tushgan sochimni.
Mana, endi mening peshonamdan o‘p,
Futbol — taqdirimsan, sila boshimni.

Asliyat:

В ладони грянувший огонь.

Tarjima:

Kaftlarimda yondi lov etib olov.

Asliyat:

А ветерок колышет сетку
И пробегает по траве.

Tarjima:

Shamol hilpiratib erkalar to‘rni,
Maysalar ustida o‘ynar bearmon.

Asliyat:

... А мяч по гаревой катился.
Стояло небо в вышине.

И ноль

во все табло светился.

И жаль «девятку» было мне.

Tarjima:

To‘p yumalab ketdi chetga shoshqaloq.
Falakdan yulduzlar boqdi,
lol qildim.

Tabloda nol yondi

to‘pdek yumaloq.

«To‘qqizinchi»ni men «bir-u nol» qildim.

Shunday qilib, Aleksandr Faynberg she‘rlari o‘zbekcha so‘zladi. O‘zbek tilida “Chig‘ir” nomli kitobi nashr etildi («Sharq» NMAK, Toshkent—2007). Ona tilimizning imkoniyatlari shunchalik kattaki, u har qanday tildan tarjima qilinayotgan asarni o‘z ko‘zgusida quyosh bo‘lsa quyosh, yulduz bo‘lsa yulduz qiyofasida aks ettira oladi.

* * *

“Adabiyot tufayli o‘zgarishim mumkin ekanligini anglaganimdan buyon men adabiyotdan meni o‘zgartirishning yangi imkoniyatlarini kutaman. Chunki men hali unchalik barkamol emasman. Adabiyot sababli o‘zim o‘zgarishim, ongli ravishda yashashim mumkinligini tushunganimdan so‘ng esa, menda adabiyot bilan boshqalarni ham o‘zgartirishim mumkin, degan ishonch paydo bo‘ldi. Axir, Kleyst, Flober, Dostoyevskiy, Kafka, Folkner, Rob-Griye mening dunyo haqidagi tasavvurlarimni o‘zgartirishdi-ku”, deb yozadi avstriyalik yozuvchi Peter Xandke.

Men ham Aleksandr Faynbergning she'rlaridan yangilik izladim — shoir o'zini ham, o'zgalarni ham o'zgartirishni istab yozgan she'rlarini tarjima qildim. Aleksandr Faynberg she'riyatining janrlari xilma-xil: doston, ballada, she'r, sakkizlik, to'rtlik, sonet. U o'z sonetlarini erkin sonetlar, deb ataydi. Bunda u sonet shaklini saqlab qoladi, biroq asarning ifoda usuli, mazmuni va ruhida yangilik qilishni, erkin va ozod bo'lishni istaydi. Shoirning "Til" sonetida ham mana shunday yangilik mavjud:

Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq.
Ummonlar suviga biz og'u qo'shdik.
Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi,
O'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q.
Daraxtlar gapirmas, kesilar o'rmon.
Tog' boshiga yugan solar lokator.
Sahro osmonida lovullar yadro,
Yonadi tili yo'q maysa, o't-o'lan.
Suv gap qaytarmaydi, gap qaytarmas tosh.
Sher olovga sakrar ursang, egib bosh.
Uchar qushlar o'lar to'p otganda o'q.
Yaralgandan buyon bu ko'hna dunyo
Befarqmiz. Uyatdan o'lganimiz yo'q.
Ne uchun til berding odamga, Xudo?

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" kitobida yoshlarni yuksak ma'naviyatli, mustahkam irodali qilib tarbiyalash zarurligini ta'kidlab: "Lekin birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak", — deydi va mashhur faylasuflardan birining fikrini keltiradi: "Dushmanlardan qo'rqma — nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma — nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq — ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi".

Aleksandr Faynberg she'rlarida oddiy insoniy tuyg'ulardan tortib, olamshumul muammolargacha qalamga olinadi. U insonning sof, oliyjanob tuyg'ularini asrab qolishga, inson tabiatini va dunyoni inqirozdan qutqarishga undaydi. Olamning farovonligi, insonning baxt-u saodati u yashayotgan jamiyat taraqqiyoti bilan yaxlitdir, deb biladi. Boshqalar baxtli bo'lsa, men baxtsiz bo'lolmayman, boshqalar baxtsiz bo'lsa, men baxtli bo'lolmayman, deydi. Jamiyatning barcha a'zolarini Vatan taraqqiyoti yo'lida birdamlikka, yakdillikka chaqiradi.

Shoshilganimda ham visolga xushbaxt,
Kuylaganimda ham do‘stlar-la sarmast —
Meni tark etmaydi birovning dardi,
Birovning g‘amidan chekdim uqubat.
Hayotda nogahon xafa bo‘lsam gar,
Hasad va xiyonat so‘ndirsa shashtim —
Birovning quvonchi ko‘nglimni olar,
Yig‘lagani qo‘ymas birovning baxti.

Inson dunyoqarashini o‘zgartirishda, uni o‘zligini anglashga, ongli ravishda yashashga undashda, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ma’naviyatimizni boyitishda Aleksandr Faynbergdek shoirning she’rlari naqadar muhim.

* * *

Maqolani yakunlab turganimda tahririyat telefoni jiringlab qoldi. Go‘shakni ko‘tarsam, Faynberg. Toshkentning 2200 yilligiga bag‘ishlab yangi asar yozibdi. Maqolamni darhol matn teruvchiga topshirdim-u yangi asar qo‘lyozmasini olib kelish uchun Aleksandr Faynberg bilan uchrashuvga otlandim.

*“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”
gazetasining 2009 -yil 24-sonidan olindi.*

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDAN NAMUNALAR:

QOR UCHQUNLARI

Moskvada yanvar.
Bo‘ron jaranglaydi yerosti bo‘ylab.
Qayoqqa, sevgim?
Markaziy telegraf. Har bir zinada
qotib qolgan ayoq moviyrang.
Ularni oralab
chiqaman peshvoz —
odam to‘la shahar.

Yanvar qori labni kuydirar,
Fonushlarga urilib chirs-chirs,
Yerosti yo‘lidan o‘tadi uchib.
Sen u yerda yo‘qsan —
hamma yoqdasan.

Sevgim mening. Eng so‘nggi sevgim.
Suvorov xiyoboni.
Qorlar uyumi.
Yurak hapqiradi parvozdan.
Ko‘rayapman —
Arbatga yo‘l olding, yoshligim.
Tortqilaydi paltong etaklarini
Sochilib-sochilib ketayotgan qor.

Moskva uzra qor.
Sumkalar uchar.
Ko‘z oldimda —
jilvagar muz kamar.
Yelkangda—tasmasi nafis sumkachang
qadamlaring bilan chayqalib borar.
Qor bosadi cho‘yan panjaralarni,
haykallarda—kumush qor po‘stin.
Har lahza, har nafas erib ketadi
oppoq qor uchquni qo‘lqoplaringda.
Seni ko‘rayapman,
Biroq — sen yo‘qsan.

Sheremetevo — yanvar o‘rmonlarida.
Balandlab boradi uchoqlar
Yo‘l solib —
Nyu-York, Amsterdam.
Suxandon yapon tilida:
“Tokioga qo‘ndik!” —beradi xabar.
Shundayin kichik yer—
shuncha ko‘p davlat!
Sen esa—yolg‘izsan.
Hech qayerda yo‘qsan — hamma yerdasan.

Bo‘lmaganda edi shu yanvar qori,
muzlayotgan bo‘ron, aldov va riyo,
ayozning afsungar suvratlarida
dunyoda yo‘qliging bilardim.
Ammo
qor yog‘ar ajoyib yoshlik chog‘larday.

U sensiz—hechdir.

Voykovskiy, ehtimol, Tagan
yerostida yo'lida mayin yel
sochlaringni shovdiratadi.
Shovqin solib moviy eshiklar
xo'rsinib-xo'rsinib qo'yadi og'ir.
Olislaysan marmar ustundan,
seni olib ketadi poyezd.
Tikilasan — oynada aksing,
yanoqlaringda
erib ketar qor parchalari.
Sen bunda — yo'qsan.
— Hamma yoqdasan.

Qor esa uchadi shaharlar bo'ylab —
Olmata, Aktyubinsk, Toshtagul.
Cho'llarda g'uvillar yuk vagonlari.
Tomlarda — Estoniya yo'l ko'rsatkichi
g'irchillaydi oqish charx kabi.
Yaltaning qumqirg'oqlarida
dengizdan sapchiydi yanvar shamoli.
U yerda ham yo'qsan—hamma yerdasan.

Aylanar, aylanar Moskva bo'roni
Yo'l oladi vokzal minorasiga.
Ko'kka ko'tarilar betakror ohang,
Tilga kirar sof kumush naylar.
Bu—umid singari ajib va mangu,
Bu dunyodan hech qachon ko'chmas.
Sen bunda ham — yo'qsan.
Lek nechun
Eshitaman zanjir ovozin
ayriliq aralash, qorlar aralash?

Shu oppoq qishda uchib ketayotir,
Yorug' do'konlarning oynaklariga
urinib-urinib jaranglayotir,
enayotir archa shariga yog'du

senga ishonganim kabi yoshlikdan.
Sen bunda — yo‘qsan.
Na qo‘ling, na labing, qaynoq nafasing,
Na qiyiq ko‘zlar.
Sen — yo‘qsan.
Lekin — hamma yoqdasan.

Yana jimib qolar ko‘tarilgan qo‘l.
Poshnalaringdan uchib — qo‘nayotgan
Qorli changlar—yulduz to‘la yo‘l.
Shom tushib kelmoqda. Yer bag‘ri—yanvar.
Archamdagi sharda—ayoz yulduzi.
U meni chorlaydi bo‘ronlar sari,
Seni uchratarmu? Ortingdami u?
Kechir, bilolmayman qachon, qayerda—
Uchrasharmiz yo?
Qorni tebratadi olis ko‘priklar.
Samoga o‘rlaydi qor uchqunlari —
ulkan parvoz oldidan
so‘nggi yo‘lga chiqayotgan
qush qanotlari.

Besh daqiqa qoldi parvozig,
Yurak — kukun. Andak—tutunda.
Seni olib ketolmayman, bu —
Ehtimolki, so‘nggi parvozim.
Bilsang, oddiy haqiqatim — shu.
Men yo‘l olgan, ko‘zlagan o‘lka
Seni bilmas, kutmaydi, erkam.
Quyosh nuri. Illyuminator.
Oqar sokin havo to‘lqini.
Qo‘ling yozib hayqirding so‘ng bor:
— Qayga? — uqdim labingdan buni.

G‘ildiraklar, yelar yo‘laklar,
Qanotlarda shovullar ayoz.
Seni sevib qoldim shu yerda,
Savollaring — hamrohing yolg‘iz..

Qolasan — sen bilan vafo, xiyonat,
Qolasan — sen bilan saodat, hasrat.
Yurak bo‘m-bo‘sh, unda topilmas
Zarra nafrat, zarra marhamat.

Bu tovushni angla — qanotlar sozi,
Yerostidan to‘lqinlanib bo‘ylaydi.
Sargardon qushlarning tungi parvozi
Oy nuriga bo‘zlarini iylaydi.

Erib bitmasidan ovozni ilg‘a,
Bu — biz yer tubiga sochgan baxt-u g‘am.
Quchib o‘tayotir ko‘zlaring ilg‘ab,
Enayotir kuzning vidosiga ham.

Hali anglab yetmay bir-birimizni
Qish kelar, qor bosar bor sirimizni.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Sizingcha, ijodkor va tarjimon o‘rtasida qandaydir ruhiy-ma’naviy aloqa bo‘lishi kerakmi? Fikrlaringizni Aleksandr Faynberg va Rustam Musurmon ijodiy hamkorligidan olingan misollar bilan isbotlang.

2. Tarjimon shoir she’rlarini tarjima qilayotganda qanchalik erkin yondashishga haqli? Misollarni Aleksandr Faynbergning Rustam Musurmon tarjimasidagi she’rlaridan keltiring.

3. “Besh daqiqa qoldi parvozga...” she’rini mutolaa qiling. Sizingcha, undagi dadillik, shoirona jasorat she’r asliyatidagi tuyg‘umi yoki tarjimon kashfiyoti? She’rni asli bilan solishtirib tahlilga torting.

4. Shoir she’rlaridan birining yod oling.

To‘rtinchi mashg‘ulot: Shoir shaxsiyatiga nazar: Aleksandr Faynberg:
“Yozayotganing bu — sening baxting”.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

Aleksandr Faynberg 1939-yili 2-noyabrda Toshkent shahrida tugʻilgan. Ommaviy qatagʻon, deb atalgan balo-qazoning alangasi lovullab, hoʻl-u quruq baravar yongan mashʻum zamon zugʻumidan uning oilasi ham benasib qolmagan.

“Ona shahrim — Toshkentim” nomli nasriy asarida shunday yozadi: “Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon boʻlib kelganman. Mana, u bamisoli kaftimning ustida turgandek butun borligʻi bilan koʻrinmoqda. Oʻn sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa choʻzilib ketgan tarxiga boqaman va ich-ichimdan oʻkinaman. Oʻkinaman, oʻksinaman! Bu shahar revolyusiya yillarida mening yolgʻizgina onamni Magadan ostonasiga uloqtirib yuborgan edi. Koʻp yillar oʻtgandan soʻng faqatgina Toshkent uni oʻz bagʻriga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolgan vujudini mehr bilan isitdi”.

Qalbi quyoshdek issiq, bagʻri keng, oq koʻngil oʻzbek xalqning mehr-u saxovatidan bahramand boʻlganini taqdirning cheksiz inoyati va rahm-u shafqati deb biladi shoir. Agar ota-onam Toshkentga kelmaganidaurush payti nemis-fashistlar qirgʻinidan omon qolmas edik, balki men hali dunyoga kelmasdanoq juvarmarg boʻlar edim, degan iqrorini takror-takror eshitganmiz. “Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqinidagi Gatchina shahrida tugʻilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan koʻchib kelishgan. Hoynahoy, men aynan shu yerda tugʻilishim uchun koʻchib kelishgan boʻlsa kerak...” Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna Faynberg.

Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga boʻlinadilar. 1-guruh Aleksandr Faynbergning sheʻrlarini, 2-guruh Aleksandr Faynbergning tarjima asarlarini tahlil etadilar. Mashgʻulot jarayonida olingan tushuncha va maʼlumotlar asosida toʻgʻri va notogʻri fikrlash holatlari koʻrsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan ragʻbatlantiriladi.

Qoʻllash: talabalarni Aleksandr Faynberg siyosiy-ijtimoiy tafakkuri bilan tanishtirish, asarlarining ijtimoiy tafakkur tadrijiga koʻrsatgan taʼsirini tushunishda

qo‘l keladi. Bunda jurnalistika, tarix, jahon adabiyoti sohasi mutaxassislarining fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Natija: Aleksandr Faynbergning she‘rlari va tarjimalaridan xabardor bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til.

Ma‘ruza matni: — O‘tgan asr oltmishinchi yillar shoirlari bilan uchrashuvlarda muxlislar stadionlarga sig‘may ketar edi, deb eslashadi.

— She‘riyat, umuman, stadionlar uchun emas. Stadionlar uchun — sport. She‘riyat — adabiyotga o‘zini bag‘ishlaganlarning qismatidir. Shunday she‘rlar kitobing bo‘lsa, uni bir inson o‘z ruhiy holati va kayfiyatidan kelib chiqib, ichki ehtiyoj bilan varaqlab o‘qisa. Dolzarblik masalasiga kelsak, gap bunday. She‘riyat, tasviriy san‘at, musiqa... Har qanday san‘at, agar u haqiqiy bo‘lsa, hamisha dolzarbdir.

— Bolalarni kitob o‘qishga qanday o‘rgatish mumkin?

— Maktabda. Bolalar bog‘chasidan boshlab kitob o‘qishga o‘rgatish yanayam yaxshi. Bola o‘z-o‘zidan bilim olishga intilishi uchun qanday dars o‘tish kerak? O‘qituvchi-tarbiyachilar mana shu masala ustida bosh qotirishlari zarur. Yoshlar yetarli darajada bilim olishlari uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Yangidan yangi maktablar, o‘rta-maxsus va oliy o‘quv yurtlari qurilmoqda. Bu yog‘i endi malakali mutaxassislar qo‘lida.

— Haqiqiy she‘riyat degani nima?

— U yurakkacha yetib borishi, ruhni to‘lqinlantirishi zarur. Afsuski, ushbu oddiy haqiqatni anglaganlar kam topiladi. Ozgina biliming bo‘lsa, so‘zlarni tezgina qofiyalay olsang bo‘ldi — olg‘a bosaver, deb o‘ylashadi. Biroq bu haqiqiy she‘riyat emas. Men ham “grafomaniya” kasalligiga muhtalo bo‘lgan odamlarga o‘xshab kilometrlab uzunlikdagi “asar” yozishim mumkin. She‘riy “asarlar yaratish”dan tezgina sovib ketayotgan yoshlardan tashqari ham bu kasallikka muhtalo bo‘lganlar ko‘p. She‘r — ko‘ngilni birdan ravshanlashtirib yuboradigan yog‘du, u kutilmaganda keladi. O‘zingni ne ko‘yga solma, garchi men bu so‘zni yoqtimasam ham, ilhom kelmasa, foydasi yo‘q.

— Original bo‘lishni istaysizmi?

— Men hech qanaqa original emasman. Faqat hadeb chaynalaverib, bu so‘z siyqalashib ketgan. Og‘zi charchamagan har kishi shu so‘zni aytadi.

— **Qofiya tanlashda qiynalgan paytlaringiz bo‘lganmi? Marina Svetayeva kabi “didga mos” so‘z izlaganmisiz?**

— Menda qofiya bo‘yicha hech qanaqa muammo yo‘q. Yozgim kelsa, yozaveraman. Biroq har doim ham bu holatga tushavermayman. Ba‘zan uch-to‘rt yil mobaynida bir misra ham she‘r yozolmayman, ba‘zan esa bir haftada bir kitobning yarmini yozib qo‘yaman. Bir satrning ikkinchi yarmida nima ro‘y berishini bilmasang, bu haqiqiy baxt. Ikkinchi satrning o‘zi keladi. Marina Svetayevaga kelsak, u buyuk shoira. Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkentda yashagan yana bir buyuk shoira bu — Anna Axmatova.

— **Alisher Navoiy — sizning sevimli shoiringiz. Uning g‘azallarini ozmuncha tarjima qilmagansiz...**

— Ha. Alisher Navoiyning rus tilida nashr etilgan asarlar to‘plamida men tarjima qilgan o‘nlab g‘azallar bor. Bunday sharafiga muyassar bo‘lganimdan baxtliman. Aytish kerakki, men hozir bu buyuk shoirning butun ijodini o‘rganyapman. Alisher Navoiy g‘azallarini rus tiliga ko‘p shoirlar tarjima qilgan. Biroq tarjimalarning hammasi ham ko‘ngildagidek chiqmagan. M. Derjavin, S. Ivanov va boshqalarning tarjimasi badiiy jihatdan Navoiy she‘riyatidan, ya‘ni asliyatdan ancha sayoz va yiroq. Shoir ijodi ular o‘ylaganidan ko‘ra nihoyatda yuksak. Ularning anglashicha, Alisher Navoiy she‘riyati — faqat parilar va hurlar tarannumidangina iborat. So‘zma-so‘z tarjimada ham shunday berilgan. Agar chuqurroq va nozikroq his eta boshlansa, Alisher Navoiy asarlari nihoyatda teran va ko‘p ma‘noli ekanligini anglayverasan. Juda ko‘p fikrlarini shoir ko‘chma ma‘nodagi iboralar, timsollar bilan ifodalagan. Axir, u yashagan muhit faqat do‘stlardangina iborat bo‘lmagan. O‘sha zamonlarda faqat san‘atni kasb qilib olgan, hayotda birgina soha bilan chegaralanib qolgan odam umuman bo‘lmagani meni hayratga soladi. Masalan, Alisher Navoiy — olim, musiqashunos, shoir va ayni paytda davlat arbobi bo‘lgan. U o‘zining barcha sohalardagi faoliyatini xalq manfaati, el-yurt farovonligiga baxshida etgan.

— **Sizning “Yozayotganing bu — sening baxting, asarlaringning nashr etilgani esa — bayramingdir” degan iborangiz bor...**

Ha, shunday deganman. Chunki, yozganlaring bilan odamlar orasiga kirib borasan. Sening so‘zlaringni eshitishlarini istaysan. Bugun she‘riyatning dolzarbligi masalasiga qaytar ekanmiz, she‘riyat kechalarida turli yoshdagi kitobxonlar — maktab o‘quvchilaridan tortib keksa kishilargacha qatnashayotgani meni quvontiradi. Mayli, ularning soni ozdir, lekin ularning boriga shukur. Eng muhimi, o‘zing tinib qolmasliging kerak, yana — faqat rostgo‘y bo‘lishing shart. Odamlar yolg‘onni shu zahotiyog sezadi.

Suhbatni Anastasiya PAVLINKO yozib olgan.

ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDAN NAMUNALAR:

Men kimdan minnatdor bo‘layin, kimdan —
Borlig‘imda hamon yashaydi tirik
moviyrang va munis bu aziz hovlim,
eshiksiz pod‘ezdlar,
nastarin devorlar.
Yuragimda sevinch, qayg‘u yugurik —
Men kimdan minnatdor bo‘layin, kimdan?

Onamga aytaman:
—Tezda qaytaman.
Ko‘rshapalak qanotidan uzilar shamol.
Chordoq derazasi.
Undan—tomga bemalol.
Jaranglab ketadi qizigan temir.
Boshim uzra — tubsizlik emas,
men tubsizlik uzraman go‘yo..

Borliq — betin. Ko‘rinmaydi tun.
Oqadi shomlar.
Yulduzlar charaqlar tiniq va nekbin.
Ayvondan sas kelar:—To‘qqiz... uyga kir...
Onamni aldayman:—Hozir, ha, hozir...

O‘sha tomdan tushib bo‘lmas
Qabrning lavhi qadar.
Qirqdaman...
Unda hali to‘qqiz bo‘lmagan...
Undan ketmas bahor, vaqt ham bekadar.
Ayvon va moviylik.
Onam ayvonda...

Blok — bu, yuksaklik. Beqiyos shoir.
Asli, biz — yerliklar taqdiri o‘zga.
Adabiyot derlar. Bu ham menga sir,
Halovat topilmas, huzur yo‘q bizga.

O'ngda tush ko'ramiz — riyo va sevgi,
Yuz-ko'zga tepinar janglar tuyog'i.
Kurash tinmas. Sendan ayrilmas sezgi —
Oromni tushda ham ko'rmayman chog'i.

Kimni suyding o'tli diling yaralab?
Kelmas huzuringga yillar oralab.

Faqat ba'zan-ba'zan qay bir go'shada
Bir juft bayt to'qiysan, ana o'shanda

Tillaringdan ko'chgan so'zlarni yona
Kimdir eslab qolar, unutar yana.

Nahot shuning uchun yashading uzoq?..

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. “Yozayotganing bu — sening baxting, asarlaringning nashr etilgani esa — bayramingdir” degan jumlada siz nimani tushunasiz? Shunga o'xshash jumlaning o'z hayoti uchun shior etgan yana qaysi ijodkorni bilasiz?

2. Navoiy ijodining jahon adabiyoti tutgan o'rni qanday? Faynbergning Navoiy ijodi borasidagi fikrlari orqali o'z fikringizni isbotlang?

3. “Kimni suyding o'tli diling yaralab...” she'rini mutolaa qiling. Unda murojaat qilinayotgan shaxs kim, sizningcha?

4. Shoir she'rlaridan birining yod oling.

MULOQOTLAR

Birinchi mashg‘ulot: O‘zbek tilidagi Faynberg she‘rlarining tarjima va lirik xususiyatlari.

O‘tkazish shakli: muloqot.

“Yelena Sergeyevna Bulgakova, Anna Axmatova, Faina Ranevskaya, Vladimir Lugovskiy ko‘chib kelgan uylar... Aleksey Tolstoy hovlisi... Tatyana Sergeyevna Yesenina boshpanasi... Mening jonajon shahrim — ona Toshkentim o‘sha yillarda, eh-he, xonadonlariga urush o‘t qo‘ygan yana qanchadan qancha odamlarning jonini saqlab qolmadi deysiz. 1937-yilda bu yerga ko‘chib kelgan va 1939-yilda meni dunyoga keltirgan ota-onam haqida gapirmasam ham bo‘ladi...”

Ana shunday tom ma‘nodagi o‘zbek xalqining farzandi bo‘lgan Aleksandr Faynberg ijodini oliy ta‘lim muassasalarining filologiya fakultetlarida o‘rgatilishi va o‘rganilishi har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aleksandr Faynberg ijodini o‘rganish bevosita “Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti”, “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” fanlarining bevosita subyekti hisoblanadi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma‘noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a‘zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta‘kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Qo‘llash: mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, huquqshunoslar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan she‘rlarning ma’no-mazmunini anglab yetadilar, tahlil qilishadi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til, Tarjimon.

Ikkinchi mashg‘ulot: Aleksandr Faynberg — mustaqillik davri O‘zbekiston adabiyotining yetuk namoyandasi.

O‘tkazish shakli: muloqot

U o‘n beshta she‘riy kitob muallifi hisoblanadi. U Alisher Navoiyning dostonlarini va she‘rlarini, shuningdek, boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlarining she‘rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning she‘rlari “Смена”, “Юность” (“Yoshlik”), “Новый мир” (“Yangi dunyo”), “Звезда Востока” (“Sharq yulduzi”), “Новая Волга” (“Yangi to‘lqin”) jurnallarida va AQSh, Kanada va Isroil kabi xorij mamlakatlarining vaqtli matbuotlarida chop etilgan.

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Faynberg she‘riyati haqida suhbatlashishadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san‘at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Aleksandr Faynberg she'rlarining ahamiyati qanday ?

2. Faynbergning rus tiliga tarjima qilingan asarlari mohiyati qanday?

Qo'llash: Uzluksiz ta'lim tizimida Aleksandr Faynberg ijodini o'rganishdan asosiy maqsad — ikki xalq do'stlik rishtalarining qanchalik mustahkam ekanligini, rus tilida ijod qilgan, ammo O'zbekiston xalqining farzandi bo'lgan Aleksandr Faynberg ijodini yosh avlodga tanishtirish, ijodkor asarlarida olg'a surilgan umuminsoniy g'oyalarni talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Natija: Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Behbudiy hayotini o'rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san'at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o'zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg'ulot: Xalqlar do'stligi — oliy saodat.

O'tkazish shakli: munozara.

Uning qalamiga to'rtta uzun metrajli badiiy filmlar, jami yettita badiiy film ssenariysi mansub bo'lib, Faynberg ssenariysi asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandahorda toblanganlar", "Eng ko'm-ko'k osmon ostida", "Tojikfilm" kinostudiyasida esa "Jinoyatchi va oqlovchilar" va boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Uning nasri katta qiziqish uyg'otadi.

Ajoyib tarjimon Faynberg ruszabon kitobxonga taniqli o'zbek shoirlarining ko'plab asarlarini ochib bergan. Moskvada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchonlarning she'rlari jamlangan "Oq qushlar galasi" to'plami nashrdan chiqqan.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabarlari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. Aleksandr Faynberg she'rlarining o'zbek adabiyotidagi o'rni?
- 2-jamoaga. Aleksandr Faynberg tarjimalarining ahamiyati.
- 3-jamoaga. Aleksandr Faynberg she'rlarida Vatan timsoli qanday?

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Talabalar Aleksandr Faynberg ijodi bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o'zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til.

Ikkinchi mashg'ulot: Shoir shaxsiyatiga nazar: Aleksandr Faynberg: "Yozayotganing bu — sening baxting".

O'tkazish shakli: munozara.

Faynberg she'rlarida uchqunli hajviya mavjud. "Ruboiy tori" dostonida u kulgu orqali o'zbek choyxonasini o'zgaras oshini shunday tasvirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o'qib bo'lmaydi. Faynbergning she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kun, [G'arb](#) bilan Sharq, milliylik bilan baynalmilallik o'zaro tutashib, o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o'zining insoniy mohiyatini to'la saqlab qolgan, o'zgaga mehr-shafqat va madad qo'lini uzatishga tayyor, ayni paytda yer kurrasida sodir bo'layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi jo'mard insondir. Faynbergning she'riy ijodida rus va [Yevropa](#) shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari sintezlashgan. [Sharq](#) mumtoz she'riyati an'analari ham uning ijodiy uslubiga begona emas.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Insert texnikasi" metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma'lumot.

“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.

“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Natija: Faynberg ijodi haqida yozilgan maqolalardan keyin talabalar shoir ijodi haqida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg‘ulot: Aleksandr Faynberg — tarjimon.

O‘tkazish shakli: taqdimot

Bir necha yillar mobaynida A. A. Faynberg Toshkentdagi O‘zbekiston yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi hisoblangan. 2004-yil shoir A.A. Faynberg Rossiya Prezidenti farmoni bilan Pushkin medali bilan taqdirlangan. Ushbu yuqori mukofotga u Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda rus tili va rus madaniyatini saqlab qolishdagi ulkan hissasi uchun sazovor bo‘lgan.

U o‘n beshta she‘riy kitob muallifi hisoblanadi. U Alisher Navoiyning dostonlarini va she‘rlarini, shuningdek, boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlarining she‘rlarini rus tiliga tarjima qilgan.

Qo‘llash: mashg‘ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Alisher Navoiy dostonlarining rus tiliga qilingan tarjimasi bilan talabalar tanishib chiqishadi va tarjimalarning ahamiyatini o‘rganishadi.

Tayanch tushunchalar: Aleksandr Faynberg, tarjimashunoslik, jahon adabiyoti, Vatan taraqqiyoti, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik, adiblar xiyoboni, lirika, milliy til.

Ikkinchi mashg‘ulot: Aleksandr Faynberg — pyesalar ustasi.

O‘tkazish shakli: taqdimot

Uning qalamiga to‘rtta uzun metrajli badiiy filmlar, jami yettita badiiy film ssenariysi mansub bo‘lib, Faynberg ssenariysi asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Eng ko‘m-ko‘k osmon ostida”, “Tojikfilm” kinostudiyasida esa

“Jinoyatchi va oqlovchilar” va boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Uning nasri katta qiziqish uygʻotadi.

Ajoyib tarjimon Faynberg ruszabon kitobxonga taniqli oʻzbek shoirlarining koʻplab asarlarini ochib bergan. Moskvada Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchonlarning sheʼrlari jamlangan “Oq qushlar galasi” toʻplami nashrdan chiqqan.

Qoʻllash: badiiy tahlil asoslari, tarjima nazariyasi fanlarining amaliy mashgʻulotlarida qoʻllash mumkin.

Natija: Aleksandr Faynberg tarjimalari badiiyati, pyesalarining ahamiyati va uning ssenariylari asosida 20 ta mutfilmlar yaratilgani uning ijodini rang-barangligini anglatadi.

Tayanch tushunchalar: badiiy adabiyot, tarjima, pyesa, sanʼat, “Oq qushlar galasi”, “Ruhlar isyoni”, “Jinoyatchi va oqlovchilar”, “Oʻzbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Eng koʻm-koʻk osmon ostida”.

IX. MUSTAQIL OʻQISH UCHUN SHEʼRLAR:

KENGLIK

Na goʻzal dalalar! Maysalar toti!
Onam izlarida — ogʻriq beaded.
Tiz choʻkib oʻtadi endi hayotim
Onamning hayoti oldida abad.

Gʻamgʻin tortar tiniq koʻl bu choq
Kuz singari tund, bulutli yoz.
Yalangliklar titraydi olis,
Yomgʻirlarda iviydi tuproq.

Qorovulning derzasiga
Yel urilar, qushcha boʻzlagan.
Quloq tutdim meni izlagan

Bargsiz butoq, xotir sasiga.

Qarshilayman qarg'alarni ham,
Namxush havo, dalalar horg'in.
Otar tonggi bo'lolmas to'lg'in
Kim o'tmishin unutsa bu dam.

Sovuq yomg'ir tinmas zulmatda,
Olis, chekka, xilvat makonda
Baxtiyorman uchratgan ondan,
Seni topib bergan fursatdan.

Minnatdorman kulrang kunchiqar,
Mudrayotgan ko'l uzra xurram,
Qo'nish joyi bo'lmagan dalam
Bo'ylab uchgan uchoqqa qadar.

Quvonchni ham, qayg'uni ham qo'y,
Ortingga bir qarama — o'tgin.
Neki bo'lgan bo'lsa — unutgin,
Xayolingda ro'yolarni suy.

Achinmagin o'tar shuhratga,
Kuzgi titroq kezgan o'rmonda
Ko'mma berib savol har onda
Bu maysalar, toshni hasratga.

Yovshan isli yellarni simir,
Yodingda tut gar shoir bo'lsang —
Bu dunyoda nima bor bo'lsa,
U dunyoda bo'lmaydi, axir.

Bu dunyoda ajib bir uy bor,
Unda jamdir do'stlar baxtiyor.

Derazada — ko'klam, nastarin.
Kimdir kuylar. Gurillar kamin.

O'rtada — jom. Yorug'dir bag'rim,
Unda meni eslatgin, Tangrim!

Aprelgacha, alvido.
Ochilgan qo'llaring — visol.
Uyum — uyum qor uchqunlari
sevgiling kaftidan bir umrga
uchib ketayotir.
Aprelgacha, alvido.
Yangi nastarinli bog'
hidlari anqiguncha
kezindik
qorda, quyoshda.
Omon bo'lsin sodiq do'st—shahar.
U bizni boshladi,
sirlarimiz — qalbi.
Qo'llarida tutdi bizni
og'riqlari nafis mo'jiza kabi.

Seni eslab... unutamam ham...
Ko'z o'ngimdan ketmaysan xurram —
bargsiz daraxtzorda,
quyosh nurida
sevgidan baxtiyor.
Yelkangdagi yopinchig'ingda
yarqiraydi yanvar quyoshi.
Bu ayriliq ishq edi, asli.
Lablarda muzlagan bo'salar yoshi.
Aprelgacha, alvido.
Bu aprel ikkimiz uchun ham —
qaytmaydi,
qaytmaydi,
qaytmaydi.

OY MANZARASI

Tungi osmon chetida turib

Baliqchi jim, yolgʻiz oʻy surar.
Yelkasida yoyilar toʻri,
Oy nurida borliq yarqirar.

Osiladi yulduzlar toʻrga,
Kumush qayiq, hovuch-hovuch zar.
Eshkaklarni koʻmgancha nurga
Mavjlanadi parsimon qumlar.

Meni deya chekma iztirob,
Yashayapman magʻrur, qaddi tik.
Yelkam tutar sobit Ishonchim,
Yorugʻ kunlar qarshimda—tetik.

Kengliklarda goh yomgʻir, shamol,
Oʻrlar boʻm-boʻsh dala oʻtinchi.
Yuragimga bargsiz shoxlardan
Moʻralaydi Umid sogʻinchi.

Ishonaman, umid uzilmas,
Zinalarda — hayotim izi.
Taqdirimni men-la boʻlishar
Olis, achchiq Muhabbat hissi.

Xusumatdan xoli dil toza,
Alam, hasrat sezinmas aslo.
Moviy koʻkda tiniq yulduzim
Oydin yoʻlga boshlaydi, illo.

UCHRASHUV

Uchrashuvga vaʼdalashaylik,
Uchrashmoqlik emas-ku gunoh.
Qaygadir bosh olib ketaylik,
Odamlarning koʻzidan uzoq.

Gitara va skripka joʻr,
Sekingina taralar navo.

Ne tilasang, ofitsiant momo
Bir lahzada aylar muhayyo.

Sachrab o'ynar qordek ko'piklar
Shampan-sharob ochilgan zamon.
Betashvishdek tuyular hayot,
Bo'lmagandek go'yoki armon.

Sharob g'amni yuvar ko'ngildan,
Qanotlarin yig'ib ohista,
Muhabbat va ishonch ikkovlon
Yonimizga o'ltirar asta.

Ishonch birla, muhabbat birla
Suhbatlasha olmaymiz ro'y-rost.
Ikkimizda hamma narsa bor,
Faqatgina umid yo'q, xolos.

* * *

Axir, menga kimlar ishongandi-ya,
Pinhon umid qilib yurakka malham?!
Maysalar, hayvonlar ishongandilar...
Menga ishongandi onajonginam.
Erkinlik deb barin boy berib qo'ydim.
Onam qabri uzra yuzlarim shuvut.
O't qo'ydim, maysalar qovjirab kuydi,
O'q otdim, hayvonlar bo'lishdi nobud.

Qushdek erkin bo'ldim, mana, nihoyat.
Kishandamasman-ku bamisoli qul?
Bolaligimdagi so'lim tabiat
Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?

Qancha mamlakatlar tushdi kulfatga,
Ummonlarim qani? Qani dengizim?
Boqdim osmondagi noxush kalxatga,
Asli shu kalxatni uchirgan o'zim.

Oyog'im ostida yerlar sho'r, taqir,

Ketyapman yelkamda safar xaltam shay.
Uyatdan yuragim o‘rtanar, axir,
Issiqda tashnalik qiynar ayamay.

Buloqqa tiz cho‘kib, egilib pastga
Chol kabi suv icha boshlayman uzoq.
Suvdagi aksimga qo‘shilib asta
Yer qa‘riga singib ketadi buloq.

SO‘Z

Poezd kechikishi oddiy voqea,
Samolyotni kutib ichikadi ko‘z.
Haqiqiy baxtsizlik, katta fojia —
Mabodo kechiksa kutilyotgan so‘z.

So‘ngan gulxan uzra bo‘lgandek pushmon,
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun
Kechikkan so‘z g‘arib, yig‘laydi yomon,
Uni kecha kutgan odamlar uchun.

Kechikkan so‘z bois o‘rmonlar yetim,
Bepoyon yerlarning peshonasi sho‘r.
Qabrlar qoshida so‘z ham beso‘z, jim,
Ruhlar bezovta-yu qismat ko‘zi ko‘r.

* * *

Besh daqiqa qoldi uchib ketaman,
Yurak kulga to‘ldi, o‘pka tutunga.
Eng baland manzilni ishg‘ol etaman,
Yolg‘iz tashlab ketgum seni ochunga.

Bu, axir, juda ham oddiy haqiqat,
Tortqilayvermagin yomg‘irpo‘shingni.
Men uchib borayotgan olis mamlakat
Senga to‘g‘ri kelmas, yig‘vol hushingni.

Illyuminatorga quyosh sochar nur,
Radar to‘lqinidan o‘zadi parvoz.

— Qayoqqa? — Lablaring qimirlar ogʻir,
Qoʻl siltaysan, chiqmas shovqinda ovoz.

Yerga tegmay uchar yelgan gʻildirak,
Qanotlar ostidan koʻtarar shamol.
Savoling havoda qolar muallaq,
Sevgilim, sevilgan goʻshangda xush qol!

Xush qol, ey sadoqat, xush qol, xiyonat,
Xush qol, baxt va shodlik, xush qol, qaygʻu-gʻam.
Xush qol endi nafrat, xush qol, muhabbat,
Zor emasman endi hatto senga ham.

VARAQ

Yulduzlarni asraydi falak,
Teran dengiz asrar durlarni.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan sheʼrlarni.

Sheʼr — nafaqat oʻqimoq, uqmoq,
Sheʼr — yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada soʻqmoq,
Tebrangandek koʻllarda qamish.

Har satrim — jon, har sheʼrim — yurak,
Oʻrmon, qushlar, bulutlarga xesh.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Sheʼrlarimni asra peshma-pesh.

Avlodlarga kelmasin malol,
Sheʼrlarim gʻam chekmasin nochor,
Shamol, dengiz va yaproq misol
Nafas olsin, kulsin begʻubor.

QORALAMALAR QASIDASI

Shoir, shu borliqda tong chogʻi ochil,
Boshqa yoʻl tanlama qabrga qadar.

Yerning jamoliga maftun, oshiq bo‘l,
Sevib-sevib kuyla, Tangri madadkor.
Biroq, shoir, oqqa ko‘chirmalaring
Bari ham diltortar, jilvagar dema.
Sirtga qalqib chiqar barisi bir kun.
Bir umr qulflangan qoralamalar
Kabi hech kim senga bo‘lolmas sodiq.
Unda — kitoblaring qoni, tomiri,
U — ijod, jasorat, yo‘lboshchi yoniq.
Ular olib kelar senga shon — shuhrat,
Tungi qoralama — ko‘z yoshday egik.
Qoralama... oddiy ko‘rinar, hech vaqt
Xiyonat qilmaslar — kechirmaslar lek
Axir, bunda so‘zlar, harflar emas,
Ko‘zga ham ilg‘anmas yulduz tovushi.
Unda — Haqqa yetar ko‘rinmas rishta,
Shoir, shu rishtani asra, albatta.
Yodlamoq mumkindir she’rlarni
Ammo —
Lahzalar betakror sado.
So‘zlar, qofiyadosh emassiz, asli—
Qondosh og‘a-ini.
Men parvoz tilayman sizlarga baland,
Ko‘zni yummay turib yoqib bo‘lmaydi
Faqat, faqat qoralamani.

*Uslubiy qo‘llanmada Aleksandr Faynbergning
Rustam Musurmon va Oygul Suyundiqova
tarjimalarisidagi she’rlaridan foydalanildi.*

CHIG‘IRNING TUSHLARI

(CHIG‘IR)

* * *

Hilol yog‘dusi. Bir oz titrab, keng hovliga tushadi, quyoshga qaratib solingan ayvonni yoritadi. Tomorqa chetidan oqib o‘tgan ariq yoqasida esa kattakon yog‘och g‘ildirak aylanadi. Bu chig‘ir. U o‘zining girdiga aylantirib bog‘langan xumdek chelaklari bilan ulkan ariqdan suv chiqaradi. Obdovi pastga yo‘naltirilgan

novdan poliz ekinlarining jo‘yaklariga, devorning naryog‘idagi dalalarga H₂O oqadi. Yer suv ichadi. Tun yarmidan oshganda chig‘ir to‘xtaydi. Falakdagi hiloldan uning uyqusiga tushlar enadi.

* * *

Shahar favvorasining shalolalari otilib tushgan marmar hovuzlar ichidan... tog‘lardagi sharqiroq irmoqlar quchoqlab oqqan xarsangtoshlar orasidan... tip-tiniq ko‘l bo‘yidagi plyajning shag‘al to‘shalgan qirg‘og‘iga... ular yugurib chiqib kelishadi — qora sochli yigitcha bilan zar kokilli qizgina. Ikkisining oqqush qanoti misol keng yozilgan qulochlaridan taralar — kamalak, kamalak, kamalak...

* * *

Ikki ayg‘ir va bir axta ot tuyoqlari ostida chaqir toshlar shiqirlaydi. Pomir etaklari. Yosh texnik-topograf olg‘a borayotgan so‘qmoq. Ha, aytmoqchi, bu mening o‘zim. Yonimda hamrohlarim Anvar va Borya — yer sahini o‘lchash uchun darajalarga bo‘lingan maxsus tayoqlarni ko‘tarib yuruvchilar. Egarga osilgan qoplarda otlarning yemi — suli. Yana uch kishi o‘n kun yeyishga mo‘ljallangan konservalar va qotgan non. Ammo gap bunda emas. Gap shundaki, tog‘da kun juda tez botadi. Qorong‘uda esa, o‘r-u daralar orasidan bironta buloqni izlab topish amri mahol. To‘satdan kun issig‘ida chanqagan uch ot gijinglab o‘zini suv to‘la novga urdi. Tog‘lik sangtaroshlar yasagan ushbu tosh nov ichiga uchta ot tumshug‘ini suqib, bo‘kkunicha suv ichdi. Xolbuki, otlarni bunday sug‘orish mumkin emas. O‘rga chiqishda terlagan jonivorlar ustidan jabdug‘ini olmasdan ayilini sal bo‘shatib qo‘yib, bir-ikki soat sovutish lozim. So‘ngra qancha suv ichsa ham bo‘laveradi. Ammo qayoqda? Bu holatda suvdan boshqa hamma narsa xayolimizdan ko‘tarilgan edi. Qizig‘i, bizning o‘zimiz ham egardan tusha sola boshimiz bilan tosh buloqqa “sho‘ng‘idik”. Bunday suv ichish bizga ham, otlarga ham halokat keltirishi mumkin edi. Natijada 32-topografik bo‘linma rahbariyati prokuraturaga bizning guruhimiz shaxsiy tarkibi va otlarning o‘limi haqida dalolatnoma yozib topshirish uchun ko‘p narsani to‘qib yozishi kerak bo‘lardi. Ustiga ustak, Vorobey va Festival — biz ayg‘irlarni shunday atar edik — suv ichib bo‘lib, bir-biri bilan olishib ketishdi. 32-bo‘linma rahbariyati mendek bir yosh bolaga ikki ayg‘irning taqdirini ishonib topshirayotganida qanday “yaxshi va shirin so‘zlar” bilan siylashganini esladim. Endi naq baloga qolaman deb o‘yladim. Hatto Barkovning “muloyimgina” nigohini tanamda his eta boshladim. Xayriyat. Borya bilan Anvarga rahmat. Ular ayg‘irlar jangini to‘xtatib qolishdi. Har birimiz o‘z chodirchamizda soat beshga qadar tosh qotib uxladik. Tong-saharda esa quyosh nurlari bizni uyg‘otdi. Hammasi yana yangitdan boshlandi. Belgilangan nuqtaga qadar — yarim kun. Teodolit bilan ishlash — o‘n minut. Navbatdagi nuqtaga qadar esa — yana yarim kun. Huv pastlikda o‘ynoqlab oqayotgan daryocha ko‘rinadi.

Faqat suvning shovqini bizga eshitilmaydi. Bizning ham, otlarning ham lablarimiz qovjiragan. Tashnalik. Tashnalik.

O‘n kundan so‘ng qarorgohimizga qaytganimizda esa, o‘zimizni otning ustidan tappa tashlab daryoga yugurdik, yotib olib suv ichdik. Yutoqib ichdik. Uzoq ichdik. Shundoq yuzimizga, kipriklarimizga tegib turgan suvga qaraganimizda, daryo sarobi yanglig‘, bu damdan minnatdor nigohlar... otlar bizga boqib turar edi.

* * *

Rang-barang kamalak, quriyotgan Orol. Halokatga yuz tutgan dengizni qutqarish uchun harakatlar boshlandi. Biroq baliqlar va kemalarning qumlarda qolib ketgan ustixonlariga qaytadan “et” bitmaydi. Planeta fojiasi. Rus donishmandlaridan biri dengizni qutqarish uchun “Shimoliy Muz okeanidan aysberglarni vertolyotlarda tashib keltirib, Orol havzasiga tashlash zarur”, dedi.

Naqadar donishmand u. Ilya Muromets. Uyg‘ondi-ya. Anasteziya, azizim, mehribonim, qaydasan? Uni yana sakkiz yuz yilga uxlatib qo‘ygin.

* * *

Suv, suv...

Burun onam meni “O‘n uch” deb nomlangan badiiy filmni tomosha qilishga olib borgandi. Ushbu “lenta” hayotimning o‘n to‘rt yoshdan o‘n to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan yillarini bashorat qilishini qayoqdan bilibman o‘shanda. Ha, mayli. Ekranida qizil armiyachilar ot choptiradi, cho‘lda bosmachilarni ta‘qib etadi. Buning menga nima aloqasi bor? E, yo‘q, Qizilqum cho‘llari bolaligimda suv haqidagi kinoni bejiz tomosha qilmaganimni eslatib qo‘ydi.

* * *

U yoqda, ikki o‘smir-yoshning og‘ushidagi kamalak jilolari ortida cho‘lning saroblari suzadi. Narimon Saidgarayev, Tolik Sluchenko, Ilyusha Soy, albatta ular bilan birgalikda kamina, qizil rangli qumlar oralab borayapmiz. O‘lgudek chanqaganmiz. Birdaniga yonib yotgan osmonga tutashib ketgan barxanlar orasidan triangulyatsion punktning uchburchak yog‘och minorasi tagidan quduq chiqib qoldi. Yaxshiyam suvi qurib qolmagan. Zo‘r! Zanjir o‘ralgan g‘altak qo‘ndog‘ini aylantiramiz. Quduq tubiga yetganda paqir sharaqlab suvga tegadi. Ko‘zlarimiz chaqnab ketadi. Suv to‘la chelakni tortib chiqarayotgan g‘altak g‘ichirlaydi, zanjir shiqiraydi. Nihoyat mana — ko‘zimiz to‘rt bo‘lib kutgan pachoq paqir. Limmo-lim suv. Ammo irib ketgan suvning sassig‘idan o‘zimizni orqaga tashladik.

Ha, bunday suvga qo‘l tekkizish ham xavfli. Hozirgina qo‘limizga ushlagan pachoq paqirni quduq yaqinidagi ko‘hna qabrlarning nafasi to‘ldirib turganday edi.

Osmondan +50, quyoshdan esa +70 harorat qizdiradi. Cho‘lning hovuri bijirlab turgan yerda kichkinagina vodiy, qo‘ylar suruvi va o‘tov paydo bo‘ldi.

— Aka, suv bormi?

— Yo‘q...

Biz holdan toyganmiz. Cho‘pon esa bamaylixotir so‘z qotadi:

— Ayron bor.

O‘tovning orqa tomonidagi yer tagidan muzdek ayron to‘la mesh keltiriladi. Xudoga shukur! Sopol kosaga qulqullatib najot quyiladi. Biz aql bovar qilmaydigan va zoriqib kutilgan ichimlikni sipqoramiz.

Cho‘pon ayron evaziga hech narsa so‘ramaydi. Minnat qilmaydi. U o‘tov ichidan yugurib chiqqan bolalariga mamnun boqadi. Men esa hayratdan yoqamni ushlab qolaman. Tasavvur qilasizmi — qora sochli qizchalar, sariq sochli o‘g‘lonlar. Ularning orqasidan choponning xotini chiqadi. Nemis ayol. Beixtiyor oh deb yuborasan. Bo‘g‘zimdan shu so‘z otilib chiqdi: “Oh!”

Cho‘pon qaysi millatdan ekanini bilmadim. Balki o‘zbekdir, qirg‘iz yoki qozoqdir... Buning ahamiyati nima?

Ammo ayron... U bizning jonimizni kiritdi. Odamning yaxshiligi meningdek o‘n yetti yashar yigitning yuragida qoldi.

Men senga ta‘zim qilaman, cho‘pon!

* * *

Yechimi mushkul suv muammosi. Oh, yechimi mushkul! Unda oynadagi kabi odamlarning qalbi aks etadi. O‘zini mashhur shoir deb biluvchi tanishlarimdan biri “temir panjaralar” davrida komsomol xodimi sifatida turli mamlakatlarga sayr etib yuradi. U sayohatchilar avtobusida Adriatika tomonga yelar edi. Shuni aytish kerakki, o‘sha shoir mutaxassisligi bo‘yicha vrach edi. Xuddi Chexov misoli, tushunyapsizmi? To‘satdan o‘sha avtobusda ketayotgan sayohatchi ayollardan birining tobi qochib, ahvoli og‘irlashib qoldi. Shuni aniq bilamanki, uni qutqarib qolish uchun suv zarur edi. Baxtga qarshi hech kimda bir qultumgina suv topilmadi. Haydovchi gazni oxirigacha bosdi. Ayolning hayoti xavf ostida qolgan edi-da. Xudoga shukur, haydovchi o‘z vaqtida bir yugoslav qishlog‘igacha yetib keldi. Qisqasi, ayolni o‘ziga keltirib oldik. So‘ngra avtobus marshrut bo‘yicha o‘z yo‘lida davom etdi. Mening haligi tanishim — shoir va vrach — sumkasidan bir shisha idish chiqarib, qopqog‘ini ochdi va bemalol koka-kolani g‘o‘ltillatib icha boshladi. Avtobusda ketayotganlarning hammasi unga qarab qotib qolishdi. Boshqalardan oldinroq o‘ziga kelgan kimdir so‘kindi:

— Ablah ekansan...

— Siz suv so‘ragandingiz-ku, — dedi ko‘k ko‘zlarini miltillatib vrach-shoir.

Mana sizga H₂O! Mana sizga Gippokrat qasami! Mana sizga vijdon, odamgarchilik o‘lchovi!

Ha, o‘lchov.

Ushbu o‘lchovga nafrat tufayli efir radio va televideniye diktorlarining xavotirli ovozlari bilan to‘lmaganmikin? Shu bois gazeta-jurnallardagi fojeaviy fotoreportajlar ko‘zimizga ignadek sanchilmaydimi?

“Xitoyda to‘fon. Odamlar ko‘chirilmoqda...”

“Tayga yonmoqda...”

“Stavropolda suv toshqini... Quduqlarga balchiq to‘lib qolgan... Ichimlik suvi yo‘q...” Eshitmaslik, ko‘rmaslik mumkin emas. Sibirda — Venetsiya. Qo‘rquvdan hurkkan sigirlar ortilgan chandolalar — qayiqalar. Hoy, Amerika, BMT, Yevropa, Hindiston — mening tahlikali dunyom. Terror, zo‘ravonlik, milliarderlar, tilanchilar, shou-bezorilar bilan to‘lgan dunyo!

Tushunish qiyin seni, Ona sayyora! Qanday gunohimiz uchun jazolanyapmiz? Shaharlar suvga g‘arq bo‘lmoqda, o‘rmonlar esa, yo Alhazar, alanga ichida. Yong‘inni hech narsa bilan o‘chirib bo‘lmaydi. Maxsus samolyotlar yetmaydi. Bu ne hol? Yetar, bas. Xudoni bezovta qilishga qanday haqqim bor? Balki menga ham, senga ham, hammamizga ham aqlimizni ishlatib iloh in‘om etgan quduqqa tupurish mumkin emasligini anglash fursati yetganmikin? Jang qilish kerak emas, ishlash kerak. Axir vaqt beshafqat — hayot g‘animat. Sen ham, men ham, hatto diniy konfessiyalar va yer yuzi davlatlari rahbarlari ham buni unutmashliklari zarur. Mana, neft bilan zaharlangan dengizlar, radioaktiv to‘lqinlar qirg‘oqqa chiqarib tashlagan delfinlar, kislota yomg‘irlari. Bularning barchasi bizning — odamlarning qilmishi. Shuning uchun suv ham goh daryo va dengizlardan qochib, goho shahar va qishloqlarni g‘arq etib, isyon ko‘tarmoqda.

Yulduzga urildi chap yondan kema,

Palubaga qadar g‘arq bo‘ldi o‘ng yon.

“Kemaga tushganning joni bir”, demak —

Ikkov pichoqlashsa, falokat ayon.

O‘zaro kurashdik. Kompasni, essiz,

Sindirdik. Kemada qon to‘kdik nahot.

Yana qasd olishni o‘yladik-da, biz

Kemani asrashni unutmik, hayhot!

Shamol qoyalarga oqizar bizni,

Bo‘g‘zimdan otilib chiqadi nido:

Nahot halok etsak o‘z kemamizni?!

Avlodlar kemadan bo‘lurmi judo?!

Palubani suvga g'arq etar ummon,
Kemaning tumshug'i tiqilar loyga.
Machtada bir maymun yugurar nolon
Go'yo ikki qo'llab yopishar oyga.
Hayqirsam, tovushim eshitilmas hech,
Yelkan arqoniga tupuraman qon.
Xudoyim! Nahotki, nahot endi kech?
Aql-u hush ber! Mahkum etma, Xudojon!
Deganding, og'a-ini erur odamzot,
Dunyoda yovuzlik qilma hech qachon.
Afsuski, meni ham qarg'agan hayot,
Pichog'im sopida qotib qolgan qon.
Endi yulduzlarga qilurmiz yurish...
Yig'la, ey, ona yer — ey aziz oshyon!
Yana avj olmoqda o'zaro urush,
Yana avj olmoqda quturgan to'fon.
Yelkandek suzadi ko'kda bulutlar,
Shturval chambari kamalakka band,
Ey, ona sayyora, esimiz yo'q-da,
Aqlsizligimiz senga berur pand.

* * *

Hayronman. Yovvoyi tabiatda ashaddiy qurg'oqchilik pallasi boshlanganida qoplonlar ham, yo'lbarslar ham, sherlar ham, eng muhimi, antilopalar ham suvi saqlanib qolgan yagona daryo bo'yiga kelishadi, bir paytning o'zida yonma-yon turib suv ichishadi. Antilopalardan hech biri qochmaydi, yirtqichlardan hech biri ularga hujum qilmaydi. Bu davrda suv hamma hayvonlarni yarashtiradi. Qanday yaxshi-ya? Bas, shunday ekan, biz insonlar bir-birimiz bilan yarashmog'imiz uchun nahotki butun yer yuzi qurg'oqchiligi zarur bo'lsa? Yoki ikkinchi jahon to'foni? Eh, xom sut emgan banda! Endi tushunarlimi?..

* * *

Suv... U bilan bog'liq bo'lgan deyarli barcha narsani yaxshi eslayman. Shuning uchun armiyadagi xizmatdoshimga maktub yo'llayman. Konvertga esa, mening chig'irim tushiga kirgan kamalakni yopishtiraman.

“Azizim Yura! Azizim Budasov! Mening kavkazlik do'stim — ingliz tili bilimdoni va akkordeonda o'ynash ustasi, omonmisan? Bilmadim, ushbu satrlarim sening Pyatigorskinggacha yetib borarmikan? Balki yulduzlar aro ko'priklar vosita

bo‘lar? Bilasanmi, men bu yerda suv ustida doiralar chizyapman. Mana, dahshatli va sadoqatli ikki kunni esladim. Biri, biz — muddatli harbiy xizmat askarlari yo‘l-ko‘prik rotasi yigitlari bilan birgalikda Tojikistondagi Kofarnihon daryosi uzra ponton-ko‘prik o‘tkazgan fevralning qorli kuni. Ikkinchisi esa, Turkmaniston cho‘llarida o‘tkazilgan harbiy mashqlarda “sovkovoy lopatka” bilan qumni jazirama osmonga qarab otgan kunimiz. Bu ishni soat 14.00 gacha katta chuqur qazish va unga o‘shandoq katta rezina basseyn joylashtirish uchun bajargandik. So‘ng o‘sha bema’ni chuqurda katta yulduzli qo‘mondon cho‘milishiga mo‘ljallangan sovuq suv bilqillab turar edi. Ha bilqillab turardi. Ana shu H2O da general lazzatlanar edi. Eslaysanmi? Biz esa bir oy davomida har birimizga berilgan askarlik ish haqini — uch sum pulni changallab, limonad va piva sotib olish uchun ofitserlar do‘koniga yugurardik. So‘ngra bu ikki iliq ichimlikni suvdonga solib aralashtirar va somoncha orqali tortardik. Mazkur ichimlikka “Qashshoqlar nasibasi” deb nom qo‘ygandik. Hechqisi yo‘q, mashqda qiyin bo‘lsa, jangda zafar qozonasan.

O‘sha voqealarni eslaysanmi, Yura Budasov? Armiyadosh do‘stim, sog‘misan?”

* * *

Yo‘q, menga yetti rangli kamalak orasidan Afrika qit‘asidagi ulkan Sahroyi Kabir ko‘rinayotgani yo‘q. Menga kichkinagina mamlakat ko‘rinyapti. Mening qadimiy ajdodlarim orqali u bilan hech qanday umumiy bog‘liqligim yo‘q. Olis, to‘g‘rirog‘i qadimiy. Isroil deb ataladi. Cho‘ldagi quruq ohaktosh ustida, insonning peshona teri va mehnati tufayli yashil maysalar va palmalar ko‘karganini, tog‘ yonbag‘irlarida archazorlar va mandarin bog‘lari yaratilganini gapirmay qo‘ya qolay... Men bu haqda emas, men H2O haqida gapirmoqchiman. Maydoni atigi Toshkent viloyati hududiga teng keladigan bu mamlakatni uchta dengiz o‘rab turadi. Biroq dengizning suvi sho‘r-da. Dengiz suvini sho‘rsizlantirishga ketadigan mablag‘ esa, Turkiyadan chuchuk suv sotib olishga nisbatan qimmat. Har bir uyning tomida yomg‘ir suviga mo‘ljallangan hayhotday idishlar. Tomchilab suv yig‘ishadi. Yagona chuchuk suvli ko‘l — Kineret ham qor va yomg‘irlarga mahtal.

Butun mamlakatdagi unitazlarga, kechirasiz, ikkitadan murvat qo‘yilgan. Biridan kamroq suv qo‘yiladi, ikkinchisidan ko‘proq. Albatta, hisoblagich asbob ham o‘rnatilgan. Dalalarni tomchilab sug‘orish haqida gapirmay qo‘ya qolay. Aytganday, tomchilab sug‘orishni o‘ylab topgan odam ilgari Toshkentda yashardi. Albatta, bu shaharda u odamdan tashqari sho‘ro amaldorlari ham yashashardi. O‘shalar olimning taklifini qog‘ozbozlik dengiziga g‘arq etib yuborishdi. Shundan so‘ng u ketib qoldi. O‘sha amaldorlarning merosxo‘rlari esa, oddiy soliq

to'lovchilar, men ham shu jumlagi kiraman, solig'idan tushgan mablag' evaziga Yaqin Sharq mamlakatlaridan tomchilab sug'orish texnologiyasini sotib olishdi.

Nima deysan, chig'ir? Gapim noto'g'rimi? Chig'ir javob bermaydi. Kamalakli tushlar ko'radi.

* * *

Niagara! Mana, qayerda suv mo'li! Arktika, Antarktida! Muz — xohlagan narsang bilan qo'shib ye uni. Zilziladan so'ng "Yosh gvardiya" kinoteatrini qanday buzishganini hamon eslayman. G'aroyib manzara! Dastlab reklama taxtalari qoplangan baxmal pardalar uchib ketadi. So'ng har ehtimolga qarshi o'sha vitrinalarning baxmal pardalari ortidan Stalinning byusti o'sha kunlarda chang-to'zonda qolgan mening Toshkentimga boqadi. Kichkinagina byustcha. Bitta emas. Ular katta haykal atrofida aylantirib qo'yilgan. Ular nimaga boqishar edi? Tabiiy ofat tufayli qurib qolgan ariqlar, huvillagan yerga boqishardi. Suvsizlikdan bo'm-bo'sh ariqlar atrofida yer tagidan yorib chiqqan yantoqlarning tikanakli nishlari yurakka sanchiladi. "Suv — bu hayot" — bu balandparvoz shior emas, balki sokingina, ammo chin haqiqat. Axir biz ilgari tip-tiniq Salordan qamish dastali qarmoqlar bilan kumushdek xonbaliq (marinka) larni ovlardik. Baliq shunaqayam zo'r ediki... Bu gapni men tasodifan ushbu satrlarimni o'qib qolishi mumkin bo'lgan yoshlarga qarata aytyapman. Bu baliq Salorda bor edi, ha, bor edi. Salor to'lib-toshib oqardi. Biz futbol o'ynab qizib ketganimizdan so'ng yotib olib suv ichadigan ariqlar-chi? Bu ariqlar beton o'zansiz ham buloqdek musaffo va toza edi. Biz yuzimizni ariq suviga botirganimizda esa, mitti-mitti baliqchalar har yonga qarab suzib qochardi. Hamma har bahorda bu ariqlarni tozalashga chiqardi. Turli belkuraklar, panshaxalar, ketmonlar bilan ariq qazardik. Hech kim majburlamasdan, iltimos qilmasdan bajarar edik bu ishni. O'zimiz.

Ozgina fursat bor... Ozgina vaqt bor...

Ajrashurmiz, boqib quyoshga so'ng bor.

Gina-kudrat qilmay, bog'da yururman,

Novdasin sindirmay meva terurman.

Yo'qotganlariga bo'lib intizor,

Daraxt, maysalar ham chekurlar ozor.

Zilol buloq... Billur kabi maftunkor,

Tiniq suv tubida barglar naqshinkor.

Kunbotarda qushlar sayrar jo'rovoz,

Tiz cho'kib daryoga sajda qilmoq soz.

Horib-charchaganda dam olmoq darkor,

Juda ko'p fursat bor... Juda ko'p vaqt bor.

* * *

Chig'irning kamalaklari, tushlari tugadi. Endi ishga. Uyqudan uyg'ongan g'ildirak sekin aylana boshlaydi. Yog'och novga tushlarning qoldig'i kabi tomchilar tomchilaydi. Ular hamon kamalak tusda. Ninachining shaffof qanotlari. Ular qirg'oqdagi qiyoflar uzra tek qotadi. Katta ariq to'lib suv oqadi. Xudoyo xudovando, nasibamizni ziyoda qilgin. Suvimiz hamisha mo'l bo'lsin. O'g'il-qizlar doimo chig'ir yonida tursin.

- Yo'q, - deydi mening navqiron do'stim, - yo'q shlangni vodoprovod jumragiga ulay olmayman. Ana, ariq. Jo'yaklarimni chelakda suv tashib kelib sug'oraman. Yaxshisi, chig'ir yasash zarur.

So'ngra biroz sukut saqlab, xo'rsinadi:

- Ariqda suv bo'lganida edi...

Qissadan hissa:

- Buzuq kran jumragidan H₂O behuda tomchilab turganini ko'rsam, qonim qaynab ketadi. Suv yo'qlikka, noma'lumlikka ketib isrof bo'lmoqda, axir!

Rus tilidan Rustam Musurmon tarjimai

X. O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON

RESURSLARI RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.: "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" .,T;2018.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008. –137 b.

4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston , 2009. – 75 b.

5. Musurmonov R. Yonib turar derazam har tun. –T.: 2009.

6. Musurmonov R. "Adiblar xiyoboni – ma'rifat bo'stoni". –T.: O'zbek adabiyoti va san'ati, 2020-yil, 19-iyun.

7. Aleksandr Faynberg. Chig'ir. T.: "Sharq", 2007.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com
3. www.saviya.uz
4. www.kh-davron.uz
5. www.ulugbekhamdam.uz
6. www.natlib.uz
7. www.sharqyulduzi.uz
8. www.yoshlikjurnali.uz